

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

«Umumiy tarix» kafedrası

ETNOGRAFIYA fanidan

Ma'ruzalar matni



Ma'ruzachi: kat.o'qt. Xamroyeva S.I.

Navoiy - 2005

Mavzu: **Jahon xalqlari klassifikatsiyasi.**

Reja:

1. Jahon xalqlari klassifikatsiyasi.
2. Etnografiya oid maxsus terminlar, tadqiqotlar va asosiy muammolar.

ADABIYOTLAR.

1. I.A. Karimov. Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli. T. «Uzbekiston», - 1992.
2. I.A. Karimov. Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. «Uzbekiston». 1993.
3. I.A. Karimov. Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli. T. «Uzbekiston». 1993.
4. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. «Uzbekiston», 1994.
5. I.A. Karimov. Istiklol va ma'naviyat. T. «Uzbekiston», 1995.
6. I.A. Karimov. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. T. «Uzbekiston», 1995.
7. I.A. Karimov. Uzbekiston iqtisodiy isloxlarni chukurlashtirish yulida. T. «Uzbekiston», 1995.
8. Jabborov I. Etnografiya asoslari. T. 1981.
9. Jabborov I. Jaxon xalqlari ztnografiyasi. Darslik. T. 1982.
10. Jabborov I. Etnografiya va jaxonning etnik kiyofasi. T. 1982.
11. Jabborov. I. Uzbek xalki etnografiyasi. T. 1994.
12. Rustamov M. Urta Osiyo va Kozogiston xalqlari etnografiyasi. T. 1990.
13. Rustamov M. Uzbek etnografiyasi. 1 – 2 – 3 – kismalar. T. 1991.
14. Raximov J. Ulkani urganishni nimadan boshlash kerak. T. 1991.

Odatda xalqlar muayyan hududda joylashadilar. Ammo tili yoki maishiy-madaniy jihatdan yaqinligi bilan ajralib turgan ayrim elatlarning o'zaro milliy aralashish jarayoni doimo sodir bo'lib turgan, etnik jihatdan chegaradosh xalqlar orasida esa bu jarayon ayniqsa ko'p bo'lgan. Hozir jahon aholisi o'z ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tuzimiga qarab, turli tipdagi etnoslardan millat, xalq, qabilaviy birikma yoki ayrim qabilalardan iboratdir.

Tarixiy jihatdan eng ilk etnos tipi ibtidoiy jamoa qabilasi bo'lib, u dastlab bir necha qarindosh-urug'lardan tashkil tolган edi. Hozirgi davrdagi qabilalar o'z ijtimoiy iqtisodiy va madaniy darajasi bilan ulardan tubdan ajralib turadilar. Bu qabilalar bir necha yuz kishidan milliongacha yetadigan holidan iborat bo'lib, ularda ibtidoiy tuzum elementlari sarqit sifatida saqlangan. Qabilaviy munosabatlar asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda ko'proq saqlanib qolgan.

Jahondagi etnik jarayon nihoyatda murakkab bo'lib, fanda qabul qilingan an'anaviy qabila, elat, xalq, millat kabi tarixiy birliklar doirasida cheklanib qolmaydi. Hozirgi davrda bir necha elat yoki xalqning yaqinlashishi va uyushishi natijasida paydo bo'lgan yirik etnik birliklar (Amerika xalqi, UO'bekiston xalqi), makroetnoslar bilan bir qatorda mahalliy xalq yoki millat ichida ba'zi xususiyatlari (shevasi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy tasavvurlari) bilan ajralib turgan maida etnografik guruhlar - mikro etnoslar ham mavjuddir.

Ba'zan xalqlar diniy e'tikod asosida o'ziga xos mikroetnoslar va makroetnoslar birligi bilan ham farklanadilar. Masalan butun Janubiy Osiyo xalqlari feodalizm davrida paydo bo'lgan induizm tevaragida turli tildagi xalqlarni birlashtirilgan makroetnoslar bo'lsa, filippin xalqining bir qismi islom dini e'tiqodi asosidagi maro nomli elatlardir. Erondagi gebrlar yoki Xitoydagi musulmon makroetnos sifatida guruhlarini tashkil qilganlar.

Jahonda ikki tili etnoslar ham kam emas, masalan, bir irqdagi Belgiya va Shveytsariya aholisi ikki yoki uch tilda gaplashadi. Ilgari mustamlaka bo'lgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining deyarli hammasida ikki tip - mahalliy va rasmiy davlat tillari mavjud. Hindistonda rasmiy hind tili bilan birga yuzlab boshqa tillar ham bor, Pokistonda urdu, Indoniziyada - baxsa-indonisiya, Filippinda — tagalog, Afrika mamlakatlarining ayrimlarida rasmiy ingliz yoki fransuz tillari bilan bir qatorda mahalliy xalq so'zlashadi.

Tillarning geografik chegaralari doimo o'zgarib turgan. Agar arab tili paydo bo'lgan vaqtda (VII asrdan oldin) undan faqat arab yarim orolining janubidagina yashovchi qabilalar foydalangan bo'lsa, hozir bu tilda Shimoliy Afrika va Janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan juda ko'p xalqlar so'zlashadi. Yoki ingliz tilini olsak, unda dastlab faqat Britaniya Orolidagi aholi so'zlashgan bo'lsa hozir Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining beshdan bir qismi Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlari asosan shu tilda so'zlashadilar. Kichkina Pireniy yarim orolida paydo bo'lgan ispan tili hozir butun Lotin Amerikasiga tarqalgan.

Jahonda faqat bir millatdan tashkil topgan davlatlar juda kam, chunki siyosiy va etnik chegaralar ham doimo to'g'ri kelavermaydi. Faqat Yevropa va Lotin Amrikasida davlatlarning tashkil topgan davri milliy shakllanish davri bilan to'g'ri kelganligi tufayli muayyan, yagona millatlar siyosiy chegara doirasida yuzaga kelgan. Ammo bu kabi mamlakatlarda ham migratsiya va boshqa turli sabablarga ko'ra ozmi – ko'pmi boshqa millat vakillari ham yashaydi. Masalan, Yaponiyada mayda millatlardan ayrimlari, koreyslar, Markaziy va Janubiy Amerikada ispan va portugal tilida so'zlashuvchi asosiy millatlar (meksikalik, chililik, perulik, braziliyalik va hokazo) dan tashqari immigrantlar va indeyslar ham mavjud. Ayrim davlatlarda esa o'nlab, yuzlab turli etnoslar yashaydi (Xindiston, Eron, Avg'oniston, Nigeriya va hokazo).

Hindevropa xalqlarining dastlabki ajdodlari mamlakatdan tashqarida, qisman Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz va Kaspiy sohillarida shakllangan, keyin Sharq va Janubiy

tomonga ko'chib, mahalliy etnoslar bilan aralashib ketgan. Mazkur til oilasiga oid slavyanlar, beloruslar va qisman tarqoq holda joylashgan polyaklar va bulg'orlar, letpgo-litva turkumiga litvaliklar va latishhlar, eron turkumiga tojiklar va asetinar, mustakt turkum hisoblangan armanlar, roman turkumiga moldovanlar, xindoriy turkumiga lo'lilar kiradi.

Slavyan tilidan keyingi o'rinda eng katta turkum - turkiy tilda so'zlashadigan asosan hozirgi joylashgan - territoriyada uzoq davr davomida shakllangan Oltoy oilasiga (o'zbeklar, qozoqlar, tatarlar, boshqirdlar, ozarbayjonlar, turkmanlar, qirg'izlar, chuvaitar, yokutlar, qoraqolpoqlar va hokazalar) xalqlaridir. Ayniqsa, Kavkaz til oilasini tashkil etadigan Kartvele turkumi (gruzinlar) adigey-abxaz (kabardin, cherkas, adigey, abxaz), naxs (chechen-ingugalar) va ko'p millatli dog'iston tsh turkumlari eng qadimiy murakkab elat va xalqlar tilidir.

Shaqlda o'rtnashgan buryatlar va qallmoqlar mo'g'ul til turkumiga, Sibir va Uzoq Sharqdagi Evenklar, Evenlar, nanaylar, udegeylar, orochilar, tunguslar esa manchjur turkumiga kiradilar. Sibir atrofida paleosiy til turkumiga oid chukchi, koryak, itellen, yukagir, nivxa eng qadimgi tiplardan suzlashuvchi elatlar yagshshdi. Vir zamonlar yenisey soxgltarida joylagigan kvltar keng tarqalgan, ammo ular hozirgacha o'rganilgan eng qadimiy poleosiy til turkumi vakillaridir. Kam sonli eskimoslar va aleutlar Chukotka yarim oroli va Komandor orollarida yashaydilar.

Chet el Yevropasining etnik qiyofasi nihoyatda murakkab. Bu yerda asrlar davomida xilma-xil qabila, elat va xalqlar paydo bo'lib, mahalliy etnoslar bilan aralashib ketgan. Evropadagi Polsha, Avstriya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Italiya, Shvetsiya kabi yirik davlatlarning 95 foiz aholisi o'z mahalliy millatidan iborat.

CHet el Yevropada yashovchi deyarli yarim milliard aholining ko'pchiligi (o'ndan to'qqiz qismi) hindevropa til oilasining uchta yirik til turkumi — roman, german va slavyanlardan iborat. Qolgan katta qismi grek, kelt va alban til turkumlariga oid va qisman ural til oilasiga kirgan finno-ugor til turkumining vakillaridir. German til turkumiga janub va g'rbda yashovchi italyanlar, fransuzlar, vallonlar, ispanlar, portugallar, ruminlar kiradi. Sharqiy va Janubiy-sharqiy Yevropada slavyan tillarida so'zlashuvchi cheklar, slavaklar, polyaklar, lujichanlar, bolgarlar, chernogorliklar, xorvatlar, makedoniyaliklar, bosniyaliklar yashaydi. German tilida so'zlashadigan avstrayaliklar, nemislar, gollandlar, flamandlar, shvedlar, norveglar, daniyaliklar, ispanlar, inglizlar, lyuksemburgliklar, elzasliklar va qisman shvetsariyaliklar Markaziy G'arbiy va Shimoliy Yevropada yashovchilar.

Jahon aholisining yarmiga yaqini Osiyoda joilashgan bo'lib, mingdan ortiq etnik tuzilishi, tili, madaniy iqtisodiy darajasi va ma'ishiy turmushi bilan bir biridan farq qiladigan turli elat va xaqklar yashaydi. Osiyoning ko'p qismi odamning vatani (ya'ni antropogenez) dir.

Bu yerda juda ko'p dastlabki qadimiy tillar, asosiy irqalar shakllangan, qadimgi madaniyat markazi, jahon dinlari (xristianlik, buddizm va islom,) paydo bo'lgan.

Yaponiya, Koreya, Bangladesh va ko'pgina arab mamlakatlari milliy birlik jihatdan ajralib turadi (asosiy xalq 95 foizni tashkil qiladi). Birma, Vetnam, Iroq, Kampuchiya, Suriya, Turkiya, Xitoy, Shri Lanka aholisining 75 foizi yagona xalqdan iborat. Afg'iston, Eron, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Filippin murakkab ko'p millatli mamlakatlarga kiradi. Ayrim xalq va elatlar (kurdlar, balujiylar, panjoblar) bir necha davlat hududida joylashgan. Ba'zi etnik guruhlar hozirgacha ham xalq bo'libgina shakllanmagan, hatto ularda urug' - qabilachilik munosabatlari saqlanib qolgan.

Osiyoliklarning tillari ham etnik tuzilishi singari nihoyatda xilma-xil va murakkab. Masalan, faqat Hindistonning o'zida 1652 xil til va turli shevalar mavjud. Eng qadimgi tip oilasiga oid dravid, munda, xitoy - tibet, tay, avstroosyo, avstroneziya, semit - xamit va hind - yevropa xalqlari ham Osiyo qit'asida yashaydi. Oltoy til oilasiga hozirgi Mongoliya va Shimoli Xitoyga paydo bo'lib, keyin boshqa yerlarga tarqalgan.

Odamzotning dastlabki vatani xisoblangan chet el Osiyosida dastlab asosiy irqalar shakllangan bo'lib, bu yerda yevropeoid, mongoloid, negroid va hatto veddoavstroloid irqalariga xam vakillari mavjud.

Evropa qit'asidan uch xisssa katta territoriyaga ega bo'lgan Afg'istonning etnik qiyofasi tabiati singari boy va rang-barangdir. Chet el olimlari uni ilgari «qora qit'a» deb atab, etnik tuzilishi o'zaro bog'liq bo'lmagan turli qabilalardan iborat deb noto'g'ri ta'riflaganlar. Albatta mustamlakachilikning asosiy ob'ekti bo'lgan, vatandan mahrum etilgan yuz minglab negrlarni qul qilib sotgan Afg'ika qit'asi bir necha asrlar davomida taraqqiyotdan chekkada qolgan edi. Lekin bu yerda bir necha millionli (misrliklar, jazoirliklar, marokashliklar, amxaraliklar) hozirgi millatlar, yirik xalq va elatlar (Nigeriyadagi xausa va fulba) bilan bir qatorda hozirgi kunda ham daydilik, sargardonlik va ovchilik bilan shug'ullanib kelayotgan urug'chilik tuzumida yashayotgan etnografik guruhlar ham uchraydi.

Demak, nihoyatda xilma - xil va rang-barang, katta va kichik turli etnoslar jahonda mavjud. Ular o'zlarining tabiiy geografik sharoiti, tarixiy shakllanib kelgan tili va milliy xususiyatlari, joylashishi va turar joylari, milliy arxitektura va uy ro'zg'or buyumlari, toamlari va iste'mol usullari, turmush tarzi va urf - odatlari, xalq og'zaki ijodi va san'at namunalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ammo bir planetada yashovchi barcha elat va xalqlar yagona insoniyatni tashkil qiladi.

Har bir fan o'zining maxsus metod va terminologiyasiga ega. Etnografiya ham mustaqil fan sohasi sifatida boshqa ijtimoiy fanlar kabi muammolarni o'ziga xos uslub va vositalarga asoslangan holda hal qiladi,

Etnografik uslubni aniqlab olish uchun, dastavval, unga xos bo'lgan maxsus terminlarni bilish zarur. Yuqorida qaid qilinganidek, etnografiyaning asosiy tadqiqot ob'ekti kishilikning tarixiy birligi hisoblangan «xalq» yoki «etnos» tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, uning kelib chiqishi, irqiy tuzilishi, xo'jalik tiplari, moddiy va ma'naviy madaniyatining turli tomonlari, ijtimoiy va oilaviy maishiy turmush doiralari, dunyoqarashi va ijodiy faoliyatini qamrab oladi.

Ma'lumki, «xalq» degan tushuncha ancha keng ma'noga ega. Ba'zan xalq deb bir to'p kishilarnin yoki ommani tushunsak, ba'zan bir necha elat va millatlar yashaydigan davlat yoki mamlakat ahoshsini tushunamiz. O'zbek klassik adabiyotida «xalq» so'zi ikki ma'noda: yaratish, borliq yoki odamlar, deb ta'riflanadi. Aslida etnografiyada aniq territoriya, tili, kelib chiqishi, moddiy va manaviy madaniyati, turmush tarzi va umumiy tashqi xususiyatlariga ega bo'lgan tarixiy birlikni anglatadigan xalq ma'nosida «etnos» termini ishlatiladi. Har bir etnos o'zining nomiga (etnonimiga) ega bo'lib, o'zini ma'lum bir etnik (milliy) oilaga mansub ekanligini aniqlash zarur. Etnoslar muayyan tarixiy davrning mahsuloti sifatida etnogenezi (kelib chiqish) bilan ham belgilanadi. Shuning uchun xam etnoslarni o'rganishda bir necha maxsus tarixiy etnografik terminlar va fan sohalari bilan muloqotda bo'linadi.

Etnoslarning moddiy, madaniyat tarixi va xususiyatlarini arxeologiya fani bilan hamkorlikda aniqlash mumkin. Madaniyat deyilganda inson qo'li va aql-idroki bilan yaratilgan moddiy va madaniy, manaviy boyliklar tushiniladi. Rus tilidagi «kultura» so'zi aslida lotincha so'z bo'lib «ishlab chikarshi», «yasash», «yaratish» degan ma'noni anglatadi. Etnografik moddiy madaniyatga xo'jalik kurollari, uy ro'zg'or buyumlri, kiyim -- kechak va bezaklar, taom va idish-tovoqlar, turar joy va uylar, badiiy buyum va hokazolar kirada. Jahon xalqlari tilida keng ishlatiladigan «genezis» so'zi grekcha «tug'ilish, kelib chiqish manbai» ma'nosini anglatadi.

Etnografiya fanida umumiy tushuncha va terminlardan tashqari ijtimoiy munosabatlarni aniqlash va ta'riflash maqsadida urug' jamoasi, qishloq yoki ovul jamoasi, qo'shnichilik (territorial) jamoasi, qabila ittifoqi va kengashi kabi terminlar muhim ahamiyatga ega. Urugchilik munosabatlarini o'rganishda «ekzogamiya» (grekcha «ekzo» — tashqi, «gamos» — nikoh) so'zi urug' yoki qabila ichida quda-andaciliknu man etshini bildiradi. «Endogamiya» (grekcha «endon» - ichki, «gamos» nikoh) esa o'z urug'i, qabilasi yoki ijtimoiy gruppasi ichida nikoh tartibi, ekzogamiyaga qarshi o'laroq, boshqa urug' yoki fratriyadan quda --andachilikni man qiladigan odatlarni ifodalovchi terminlar muhim ahamiyatga egadir.

Matreaxat (ona urug'i) dan patriarxat (ota urug'i) ga o'tish davriga oid munosabatlarni belgilovchi ayrim terminlar ham mavjud. «Kuvada» (fran-cha «tuxum bosish») tushunchasi otaning bolaga nisbatan o'z huquqini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan maxsus odat(masalan, indeyslarda ona tug'ayotganda ota ham o'zi tug'ayotgandek ko'rpa orasiga kirib olib og'ir

kuchanib yotishi rasm bo'lgan), yoki «avunkulat» (lotincha «amaki» tartibiga ko'ra onaning aka-ukalari bilan bolalari (amakivachchalar) o'rtasida maxsus munosabatlar o'rnatilgan, amakisi jiyanining tarbiyasi va taqdiriga javobgar hisoblangan.

Etnoslarning xo'jalik faoliyati va mashg'uloti, shuningdek, ovchilik, baliqchilik, chorvachilik va dehqonchilikka oid juda ko'p terminlar bor. Masalan, dehqonchilik yerga ishlov berish usuliga qarab bir necha xilga bo'linadi (o'rmon yoki butazorlardagi daraxtlarni kesib, o't yoqib, kuydirib, kuliga urug' sepish usuli; yerni almashtirish portov yerga ekin ekish usuli; oddiy tayoq yoki motiga (ketmon) bilan yerga ishlov berish usuli; omoch bilan hayvon kuchidan foydalanib yer haydash usuli va xokazo.). Asosiy tirikchilik manbai hisoblangan chorvachilik ham har xil tarmoqqa bo'lingan (yilqichlik, tuyachilik, bug'uchilik). Hunarmandchilikning ham tarmoqlari juda ko'p bo'lib, turli etnoslarga xos maxsus terminlar qo'llanilgan.

Etnoslar joylanishi, uy-joy qurilish, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklari, bezaklari va boshqa moddiy-madaniy buyumlari, taomi va ovqatlanish tartibi bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Hozirgacha ba'zi yerlarda chaylalar yoki yerto'lalar (chum, vigvam, kata), chodir va qora uy, o'tov, guvala, xom g'isht, yog'och yoki toshdan qurilgan, cho'qqaygan yoki gumbazsimon tomli oddiy uylardan tortib to zamonaviy ko'p qavatli shahar uylari ko'shk va saroylargacha uchratish mumkin. Etnografiyada mazkur turar joylar va ular bilan bog'liq buyumlar, munosabatlar va irimlar maxsus terminlar bilan belgilanadi. Turli tabiiy sharoitga moslashgan va milliy xususiyatni ifodalovchi kiyim-kechagi (tiqilishi, materiyali, shakli, naqsh-bezaklari) va taomlari (go'sht, sabzavot, baliq, sut mahsuloti, o'simlik, pishirish usuli va hokazolar) ham ayrim etnoslarning o'ziga xos termin va tushunchalarida namoyon bo'ladi. Kiyim va taomlar ham kundalik bayram, diniy marosimlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ma'naviy-madaniy tushunchalarga oid diniy e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq terminlar juda ko'p ishlatiladi. Masalan, ibtidoiy diniy formalardan totemizm, magiya, (sehirgarlik), shamanizm, animizm, tabiat kuchlari va arvohlarga sig'inish ibodat formalari va marosimlarni aniqlovchi turli terminlar jahon dinlari bilan bog'liq xudo, pir, avliyo, qurbonlik, har xil diniy odat, marosim va irimlarni ifodalovchi terminlar.

Etnografiya fanining o'ziga xos termin va tushunchalaridan tashqari maxsus tadqiqot uslublari ham mavjud. Albatta etnoslarni o'rganshda etnografiya nihoyatda keng va xilma-xil tadqiqotlardan foydalaniladi. Yozma manbalar, moddiy buyumlar, og'zaki ma'lumotlar, arxiv xujjatlari va yaqin fanlar to'plangan materiallar uning diqqat-markazida bo'ladi. Etnografiyaning etnos xayotini bevosita kuzatish yo'li bilan, joylarning o'ziga to'plagan materiallari asosiy manba hisoblanadi. Atoqli rus etnografi V. G. Bogoraz dala ishlariga (bevosita joylardagi) yuksak baxo berilgan. Bir joyda uzoq davr yashab, kuzatish ishlari olib borish

naqadar muhim va samarali ekanligini mashhur amerika etnografi L. Morgan va atoqli rus tadqiqotchisi N.N Mikluxo-Maklaylar ham alohida qayd qilganlar.

Etnografik tadqiqotlar boshqa gumanitar va ba'zi tabiiy fanlar bilan yaqin aloqada o'tkaziladi va bu fanlarning yutuqlaridan keng foydalaniladi. Chunki etnos iqtisodiy, sotsial va madaniy turmushning barcha tomonlari bilan bog'lik. Etnografiya xalqlarning kelib chiqishi, shakllanishi, tarixi, irqiy tuzilishini o'rganishda arxeologiya va antropologiya bilan yaqin munosabatda bulganligi tufayli maxsus sohalar - etnik antropologiya, peleoetnografiya kabilar bilan ham yaqin aloqada bo'ladi. Etnik tarix va xususiyatlarni aniqlashda til muxim belgi bo'lganligi uchun tilshunoslikda yangi soha - etnolingvistika paydo bo'lgan. Etnoslarning ma'naviy madaniyati san'atshunoslik, musiqashunoslik va folklor bilan xamkorlikda o'rganiladi. Tadqiqotlarning rivoji natijasida, etnik jarayonni chuqur tadqiq qilish maqsadida keyingi yillarda sotsiologik tadqiqotlarning rivojlanishi yangi sohalar-etnosotsiologik va etnopsixologiyalarni yuzaga keltirdi.

Etnograflar oldida hozircha kam o'rganilayotgan, ammo muhin amaliy ahamiyatga ega bo'lgan etnopedagogika (yangi avlodni an'anaviy urf - odatlar va zamonaviy talablar asosida tarbiyalash) muamosi ham turibdi. Umuman, asrlar davomida to'planib kelgan xalq ijodiy tajribasini o'rganish muhim. Shu nuqtai nazardan masalan, xalq meditsinasini tadqiq qilish katta ahamiyatga ega. Bu boroda xam ma'lum yutuqlarga erishilmoqda. So'nngi yillarda jahon xalqlari dinlarini o'rganishga ham e'tibor kuchaymoqda. Har bir xalqning an'anaviy-ma'naviy madaniyatining muhim qismi hisoblangan din va diniy tasavvurlarni tadqiq qilish etnografiyaning muhim muammosi hisoblanadi.

Davom etib kelayotgan ibtidoiy urug'chilik tuzumu va uning qoldiqlarini o'rganish etnografiya fani oldida turgan muxim masalalardan biri hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyat tuzimi qoldiqlari (ilk xo'jalik va texnika ko'rinishlari, ijtimoiy munosabatlari, din, san'at va dastlabki bilimlar) bizning davrimizgacha yetib kelgan Avstraliya, Afrika va Amerikabagi ibtidoiy qabilalarni o'rganish orqali aniqlanadi. Ibtidoiy jamiyat davridan bizgacha yetib kelgan jamoatchilik munosabatlaridagi ba'zi sarqitlar hatto eng taraqqiy qilgan etnoslarning turmush tarzida ham uchraydi.

Mavzu: **O'zbeklar shajarasi va avdod-ajdodlar muammosi**

Reja:

1. O'zbeklar shajarasi.
2. Avlod - ajdodlar muammosi.

ADABIYOTLAR.

1. I.A. Karimov. Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli. T. «Uzbekiston», - 1992.
2. I.A. Karimov. Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. «Uzbekiston». 1993.
3. I.A. Karimov. Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli. T. «Uzbekiston». 1993.
4. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. «Uzbekiston», 1994.
5. I.A. Karimov. Istiklol va ma'naviyat. T. «Uzbekiston», 1995.
6. I.A. Karimov. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. T. «Uzbekiston», 1995.
7. I.A. Karimov. Uzbekiston iqtisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yulida. T. «Uzbekiston», 1995.
8. Jabborov I. Etnografiya asoslari. T. 1981.
14. Jabborov I. Jaxon xalklari ztnografiyasi. Darslik. T. 1982.
15. Jabborov I. Etnografiya va jaxonning etnik kiyofasi. T. 1982.
16. Jabborov. I. Uzbek xalki etnografiyasi. T. 1994.
17. Rustamov M. Urta Osiyo va Kozogiston xalklari etnografiyasi. T. 1990.
18. Rustamov M. Uzbek etnografiyasi. 1 – 2 – 3 – kismalar. T. 1991.
14. Raximov J. Ulkani urganishni nimadan boshlash kerak. T. 1991.

Jahonda o'zini sof, aralashmagan deb, da'vo qiladigan biror elat yoki xalq yo'q. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida turli elatlar bilan aloqada, ba'zan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib kelgan. Tarixdan ma'lumki, asrlar davomida davlatlar tashkil topishi bilan katta-kichik urushlar bo'lib qudratli hukmronlar ojizlarini bosib olib o'ziga bo'ysundirganlar, elatlarning esa asta - sekin ob'ektiv va sub'ektiv omillar orqali bir - biriga singib ketishiga sabab bo'lgan. Bunday holatni juda ham boy, xilma-xil fojiali va ijobiy voqealarni ko'rgan, turli istilochilar tomonidan bosib olinib g'ayri elat va davlatlarning ta'siriga

o'tgan, ammo o'zining ko'p asrshk tarixi davomida milliy xususiyatlarini saqlab kelgan o'zbeklar ham boshdan kechirgan.

Afsuski, tarixiy ma'lumotlardan bexabar yoki tor doiradagi manbalarga tayangan ayrim mualliflar o'zbek, tojik va boshqa O'rta Osiyo xalqlarini faqat o'z qobig'ida paydo bo'lgan degan g'ayriilmiy fikrlarni targ'ib qilib, millatchilik tuyg'ulariga ta'sir qilmoqdalar. Mintaqada mustahkam davlatlar yuzaga kelgan murakkab bir sharoitda mazkur soxta fikrlar halol, kalbi pok xalq ommasini, chalgitib, fojiali voqealarning tugilishiga sabab bo'layotganligini tarix tajribasi ko'rsatadi. Bunday holatdan g'arazgo'y kishshar o'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun foydalanib, ular yana ham og'irroq va fojiali holatga olib kelishi mumkin.

Tarix, tilshunoslik, etnografiya fanlarining jahon miqyosida qo'lga kiritgan ilmiy jihatdan muhim fikr — mulohazalarili mensimay, tor millatchilik doirasidan chiqa olmay mulohaza qilish nafaqat fanda, siyosatda ham eng katta zararli xotiralarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun hesh, uzbek, tojik, turkman, qirg'iz va boshqa O'rta Osiyo elat va xalqlarining etnogenezi, ya'ni kelib chiqishi muammolarini faqat jahon xalqi yutuqlariga tayangan holda (ularni yevropalik yoki osiyolik demasdan) to'g'ri, ob'ektiv hal qilish zarur. Jahon turkalogiyasining ko'p yillik ilmiy izlashailari, sharqshunoslik, arxeologik va tarixiy-etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xalqlari, boshqa ko'p etnoslar singari ancha chigal va murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar.

O'zbek xalqining kelib chiqishi nihoyatda murakkab va juda uzoq tarixga ega. Bu jarayon eng qadimiy va ilk o'rta asr davrida turli elat va xalqlarning butun Markaziy va O'rta Osiyo, Kazog'istonning keng hududida ko'chishi va aralashishi natijasida muayyan davlat birikmalari doirasida ro'y bergan. Mintaqada bir necha ming yillar davomida chegaralari o'zgarib turgan muayyan tarixiy-madaniy birikmalar yuzaga kelgan. Tadqiqotchilarning ta'siriga binoan bu birikmalar quyidagicha:

- 1) yarim o'troq ovchi - baliqchi elatlar;
- 2) daryo oqimida va yeodiyalarda yarim o'troq chorva - dehqonchilik bilan shugillanuvchi aholi;
- 3) sug'orma va bahori yerlardagi omoch dehqonchiligi bilan chorvachilik xo'jaliklari;
- 4) quruq iqlimli dasht va yarim dashtlarda qisman dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xo'jalik madaniyati vakillari.

Keyingi bir necha o'n yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ibtidoiy aholining antropologik jixatdan yevropoid irqining janubiy yoki O'rta yer dengizi pushtiga yaqin ekanligi isbotlangan. Shu m'anoda ayrim tadqiqotchilar o'zbeklarni tojiklar bilan birga bir-biriga pomir - fargona irqini aloxida ajratib janubiy yevropeoid irqining uziga xos pushti ekanligini qayd qiladilar. Bunga

dalil sifatida Janubiy O'zbekistonda kashf etilgan O'rta Osiyodagi eng qadimiy mustye davriga oid paleolit bolaning Teshiktoshda topilgan suyak qoldiqlari ko'rsatilgan. Mazkur irqqa o'xshash tiplarining O'rta yer dengizi, Old va Janubiy Osiyoning ayrim rayonlarida topilishi diqqatga sazovordir.

Surxandaryo va Farg'ona vodiysining turli joylaridan topilgan turli qurol va buyumlar, madaniy qatlamlar bu yerda yashagan aholi teshik toshliklar singari ovchilik va terimchilik bilan shug'ullanib, olovdan keng foydalanganliklari to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi.

Demak, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistan arxeologik va poleantrapologik tadqiqotlarga qaraganda, tarixiy-madaniy va etnik jihatdan insoniyat tarixiy taraqqiyotining eng ilk davrlaridan boshlab Old Osiyo bilan bog'liq bo'lgan, balki paleolit davridan boshlab O'rta Osiyoga aholi Old Osiyodan ko'chib kela boshlagan va keyinchalik ovchi va terimchi kabilarning ko'chish jarayoni davom qilib turgan. Bunga Machay g'oridan topilgan mezolit (e.a. VII –VI ming yilliklar) davriga oid odam suyagi qoldiqlari va juda ko'p moddiy buyumlar dalil bo'ladi. Bu makondagi madaniy katamlarga o'xshash topilmalar Toshket vohasida, Turkistonda, Janubiy Qozog'iston va Old Osiyo mamlakatlaridagi mezolit obidalaridan topilgan buyumlarga o'xshaydi. Poleantrapologik tadqiqotlar mazkur makonlarda yashagan aholi yevropoid irqiga mansub ekanligini tasdiqlagan. Topilmalar O'rta Osiyo aholisining eng qadimiy davrlaridan qo'shni elatlar, ayniqsa janubiy va g'arbiy qabilalar bilan aloqada bo'lganligini isbotlaydi. Keyingi o'n yilliklarda Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg'onada kashf etilgan mezolit makonlari, ayniqsa Markaziy Farg'ona mezoliti alohida ahamiyatga ega.

Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, O'rta Osiyoda yashagan xalqlarning paydo bo'lishi mazkur xo'jalik madaniy tiplarning tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning etnik xususiyatlarini belgilab bergan. Dastavval shuni alohida kayd qilish lozimki, bu yerda ibtidoiy jamiyat tashkil topgan neolit davridayoq mazkur xo'jaliklar bir joyda paydo bo'lib, keyin butun mintaqaga tarqalgan. Ayniqsa juda ko'p topilgan neolit makonlari (Xorazmdagi Kaltaminor, Zarafshondagi Chinkeldi, Markaziy Farg'onada va Ustyurtda, Jaytun va boshqa yerlarda) turli qabilalarning o'zaro bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Shuni muhimki, masalan, mashhur kaltaminorliklar, o'z madaniyati bilan cheklangan holda xayot kechirmay, atrofdagi uzoq-yaqin qabilalar doimo o'zaro aloqada bo'lib turganlar. Ular shimolda qadimiy uralliklar, janubda jaytunliklar va ular orqali Kaspiybo'yi va Eron qabidalar bilan aloqa bog'laganlar.

Demak, mahalliy etnoslar eng qadimgi ibtidoiy davrlardan boshlab o'zaro aloqada bo'lgan urug'- qabilalarning umumiy xo'jalik madaniy xususiyatlari tufayli asta-sekin butun mintaqada tarqalib ildiz ota boshlagan.

Eramizdan avvalgigi IV – III ming yilliklarga oid Kayataminor madaniyati, ayniqsa, Xorazmdagi Jonbosqal'a - 4 makoni, Qoraqalpog'istondagi Qavat-7 xarobalari qazilmalari va

boshqa obidalar keng hududda ovchilik va baliqchilik, dehqonchilik bilan shug'illanuvchi elatlar yashaganligini ko'rsatadi. O'sha vaqtda Amudaryo suvi O'zboy orqali Kaspiy dengizigiga quyilgan. Janubiy Orol bo'yi, Amudaryoning Janubiy o'zani, Oqdaryo va O'zboy suvlaridan foydalanib dehqonchilik qilgan aholi neolit va eneolit makonlarini yaratganlar. Ularning xo'jaligida chorvachilik muhim sohaga aylana boshlagan. Kaltaminorliklarning yuqori dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan janubiy elatlar bilan aloqalari ularni Erondagi ilk paleolit madaniyati doirasiga eltadi. Bu yerda qandaydir yangi etnik elementlarning paydo bo'lishi, ular orqali shimoliy elatlar janubiyliklar bilan aloqa qilib Kaltaminor qabilalarining ta'siri o'tganligidan darak beradi. Natijada o'ziga xos madaniy – tarixiy sohalar yuzaga kela boshlagan. Kaltaminor madaniyati mahalliy va janubiy mezolit madaniyatlari bilan uzviy bog'liq holda izziz yo'qolib ketmagan. Mazkur madaniyat o'zidan keyin paydo bo'lgan Tozabog'yob va boshqa madaniyatlarning shakllanishiga zarur shart-sharoitlar yaratgan. Bunday jarayon Suyorg'on madaniyati obidalarini, Zamonbobo-1 va Buxorodagi Lavlaxon ko'li hamda Beshbuloq qudug'i makonlari (e.a.III – II ming yilliklar) misolida yorqin ko'rinadi.

Temirning kashf etilishi butun mintaqada ishlab chiqarishning rivojlanishiga zo'r turtki bo'ldi. Oqibatda keng hududda, jumladan O'zbekistonda ham aholi o'sdi. Bu davrda irqiy jihatdan ko'p uzgarishlar ro'y berdi. Dastavval antropologik jihatdan mongoloid elementlari kuchayadi va yevropeoid yaxlitligi o'zgara boshlaydi. Ammo mongoloid belgilar hamma yerda bir xil bo'lmasdan, faqat ayrim hududlarda ko'proq jamlangan.

Eramizdan avvalgi I ming yillikda O'rta Osiyoda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar ro'y beradi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar - qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi dastavval tekin qo'l mehnatisiz mumkin emas edi. Qo'shni Eron, ayniqsa Midiya davlati (eramizdan avvalgi VII – VI asrlar), Ahamoniylar imperiyasi (eramizdan avvalgi VI – V asrlar) tashkil topishdan oldinroq O'rta Osiyoda 2 ta quldorlik davlati - Baqtriya va Xorazm paydo bo'lganligi to'g'risida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Mazkur manbalar va tosh qabrlarga bitilgan rasmlarda (Persepol saroyi), zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da, Rim, yunon va Xitoy mualliflarining asarlarida hozirgi o'rta osiyoliklarning qadimiy ajdodlari sak-massagetlar, yuechji, kangyu (kang'ar), usun va boshqa elatlar saklar juda keng tilga olinadi. Shularning ichida eng katta elat saklar juda keng hududni - Tyan-Shan va Pomir etaklaridan Kaspiy dengizi sohillarigacha butun yerlarni egallagan, ularning eng zich joylashgan yeri Sirdaryo havzasi bo'lgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, qadimiy Baqtriya va Xorazmda yashagan hozirgi tojik, o'zbek va qisman turkmanlarning ajdodlari asosan eroniy tillarning sharqiy shoxobchasi va qisman turkiylashgan sak yoki skif tillarida gapirishganlar.

Entik davrga kelib mintaqada sug'orma dehqonchilikning ribojlanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y beradi. Natijada Sug'diyona, Baktriya, Xorazm kabi dastlabki davlatlar va yirik shaharlar paydo bo'ldi. Bu davlatlarning aholisi asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Sug'orma dehqonchilik Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi havzalarda, Farg'ona va Zarafshon vodiylarida ancha rivojlangan.

O'rta Osiyoning dasht va tog'li rayonlarida ilk antik zamonda ham ko'chmanchi qabilalar yashagan. Ayrim tadqiqotchilar bu kabilalarni «Avesto»da tilga olingan, keng hududda ko'chib yurgan sak qabilalari bilan bir xil deb hisoblaydilar. Qadimiy yunon va Eron manbalarida Kaspiy dengizi sharqidan Shimoliy Xitoy, Hindiston va Janubiy Sibirgacha joilashgan sak, skif, massaget elat va qabilalari nafaqat ko'chmanchi, balki qisman o'troq hamda ovchilik-baliqchilik bilan shugullanuvchi Orolbo'yi va Quyi Sirdaryodagi qabilalrni ham o'z ichiga olganligi ta'kidlanadi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyoning markaziy qismida, shu jumladan hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan xalqlar asli bronza davrida kelgindi shimoliy-g'arbiy va janubiy qabilalarning mahalliy elatlar bilan aralashmasidan shakllangan. Taxminan eramizdan avvalgi I ming yillik oxirlariga kelib Kang'ha davlatlari chegarasida ko'p qabilalar jipslashib o'troq holatga o'ta boshlagan, ko'chmanchi qismlari esa yirik qabila ittifoqlariga birikkan. Shu asosida tip jihatdan hesh o'zgarishlar ro'y berdi.

Eramizning II asrida Sirdaryoning so'l qirg'og'i – Sug'dning dasht yerlarida xunlar joylashgan. Ularning keyingi asrda hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari yaylovlarini egallab, hatto qo'shni Eronga ham yurishlar qilib turganligi tarixdan ma'lum. Mazkur xunlar tarkibida turkiy qipchoq, uyg'ur, tyurgasht kabi qabilalar bo'lib, ba'zi manbalarda ular xionitlar deb tilga olingan. Movarounnahrda keyin kelib joylashgan yana bir katta turkiy komponent-kidariylardir.

Mintaqada ro'y bergan mazkur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, migratsiya va ko'chishlar O'rta Osiyoliklarning irqiy tuzilishida ham muayyan uzgarishlarga olib kelgan. Etnik guruhlarining ayrimlarida mongoloid belgilari sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo o'troq aholisi, shimoli-sharqiy tomonda Tyan-Shan va Oloy qabilalarining, sharqda - sak-sarmat ko'chma guruhlarining, janubda dehqonchilik bilan shug'illanib kelayotgan etnik guruhlarining chatishmasidan o'ziga xos etnomadaniyat birikmalari yuzaga keladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, mintaqaga muhim etnik qatlam bo'lib kirgan saklar, Tyan-Shan va boshqa tog' rayonlarida yashaydigan aholi chorvachilik bilan shug'illanib kelganlar. Arxeologik qazilmalardan topilgan qurol- aslaha, turli buyumlar, xunarmandchshik va dehqonchilik mahsulotlari, mudofaa va sug'orishi inshootlari va boshqa

boy maeriallar mazkur qabila va elatlar yuksak madaniyat yaratgan etnoslar ekanligidan dalolat beradi. Ular O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklarning ham shakllanishida eng qadimiy etnik qatlam sifatida qatnashgan qabilalardan hisoblanadi.

O'rta Osiyoning eramizdan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab dastlab ahamoniylar imperiyasiga kirishi, keyin makedoniyalik Iskandarga bo'ysindirishi mahalliy elatlari uzoq o'lkalar bilan aloqalarni kuchaytirishga olib keldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, O'rta Osiyoliklarning vakillari Eron podsholari Doro va Kserksning Yunonistonga qarshi yurishlarida ishtirok qilganlar. Saklarning ancha qismi eronliklarni harbiy kemalarida xizmatda bo'lganlar. O'rta Osiyodan chiqqan kishilar, chunonchi, xorazmliklarni hatto Janubiy Misrda ham uchratishi mumkin edi. Aksincha, o'sha davrda tashqaridan keltirilgan qullar har xil etnoslarning vakillaridan bo'lgan. Ko'hna xarobalardan topilgan buyumlar, qurilish va fortifikatsiya (mudofaa) inshootlari, hunarmandchilik ayrim turlarining mahalliy ustalargina emas, balki janubiy qoshtni o'lkalardan asirga tushgan qullar qo'li bilan qilinganligi yodgorliklardan ko'rinib turibdi, Masalan, Xorazm va uning tevaragidagi qudratli apasiaklarning qal'a va qasrlarida ishlagan ustalar chet eldan keltirilgan bo'lsada, ular qurilish va hunarmandchilikni o'z xo'jayinlarining talabiga binoan xorazmliklarning me'morchilik va kasb san'atiga taqlid kilib ishlaganlar. Arxeologlarning fikricha, mazkur etnik jarayonda juda keng hududga o'z ta'sirini o'tkazgan Xorazm alohida o'rinni egallaydi, Ularni aytishicha, eramizdan avvalgi II ming yillikda Xorazmning bronza davri madaniyati, aftidan Kopetdog' etaklarida topilib tekshirilgan ilk dehqonchilik madaniyati bilan Sharqiy Yevropadagi dasht bronza madaniyatini bir-biriga boglovchi xalqa bo'lib xizmat qiladi.

Makvdoniyalik Iskander eramizdan avvalgi 329 yilda O'rta Osiyoda paydo bo'lganda Kir va Doro mustabid davlatiga qaram hisoblangan mahalliy aholining ko'pchilik qismi eroniy til guruhining turli laxjalarida gapirganligi to'g'risida juda ko'p manbalar, ayniqsa antik davr mualliflari qayd qiladi. Ammo nihoyatda keng hududda joylashgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi elatlarning ancha qismi turkiy tilda gapirganligi tufayli ular mahalliy xalqlar bilan juda yaqin aloqada bo'lib tub aholini turkshashtirish jarayoni kuchaya boradi. Ularning o'troq holatiga o'ta boshlagani ham tarixda aniqlangan. Ayniqsa, ikki era oralig'idagi davr ichida o'rta osiyoliklarning boy madaniy merosi zaminida uziga xos etnik jarayonni yuzaga keltirgan Kushan va Xorazm davlatlari ancha gullab - yashnagan. Bu davlatlarda juda ham ko'p va xilma — xil obidalar paydo bulgan. Ko'p elatli Xorazm Iskandar istilosidan keyin ham, ahamoniylar imperiyasi davridagidek, o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Ko'kcha dengiz madaniyatiga oid Chirikrabort qo'rg'onlarining biridan topilgan skif (apasiak) jangchisining temirdan yasalgan sovuti Iskandar yurishlari davriga oid eng qadimgi shu xildagi qurol - aslahalardan hisoblanadi.

Eramizdan avvalgi II asrda Mitridat I davrida Parfiyaning hududi nihoyatda kengayib Midiya, Fors, Bobil va Marg'iyona o'lkalarini o'z ichiga oladi. O'sha davrda ulug' xokimiyatga aylangan bu mustaqil davlatning markazi O'rta Osiyodan g'arbga ko'chib, uning tarixi Rim imperiyasi bilan oradagi yerlarni bo'ysindirish uchun tuganmas kurashda o'tgan.

Eramizning I- IV asrlarida O'rta Osiyo keng hududni egadlagan qudratli Kushon davlatiga kiradi. Kushonlar dastlab Qobul bohasini va Kashmir viloyatini, keyin gunn qabilalari yurishlaridan ancha bo'shagan Kangyuyning janubiy qismini va Hindistonning Benaresini bosib oladilar. Kushon imperiyasi Kanishka hukmuronlik qilgan davrda (78-123 yillar) o'zining eng gullagan « Shak davri» nomi bilan Hindiston tarixiga kirgan. Iste'dodli sarkarda va davlat arbobi Kanishka o'z imperiyasi chegarasini Janubiy Turkmaniston sa Hindiston tomon kengaytirib, poytaxtni Peshovorga ko'chiradi. U Xitoy bilan urushlar olib boradi, Rim bilan muvaffaqiyatli diplomatik aloqalar o'rnatadi. Eramizning 99 yilda Kushan elchilarning Rimga kelishi va Kushon davlati hududida ko'plab Rim tangalarining topilishi bunga dalil bo'la oladi. Kushon tangadari Kama bo'ylarida ham uchraydi. III asrdan boshlab imperiya chuqur inqirozga uchraydi, uning ayrim qismlari, jumladan Farg'ona va Xorazm ajralib, mustaqillikka erishadi va o'z tangalarini chiqara boshlaydi. Oqibatda buyuk imperiya yemirilib, Eron podsholigi sosoniylar sulolasi tomonidan qisman bosib olinadi. Turli din, irq va tildagielatlar bo'ysundirilgan va birlashtirilgan Kushan imperiyasi davrida murakkab etnik jarayon ro'y beradi, o'zaro xo'jalik - madaniy munosabatlar iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi.

O'rta Osiyoda kushonlar davrida xo'jalik jihatidan ancha yuksalish bo'lib, irrigatsiya inshootlari rivojlanadi. (Xorazmda Gavhar va Charmanyob, Buxoroda Gav-Kitfor, So'g'dda Darg'om magistral kanallari), kulolchilik ravna topadi, tosh yorg'uchoqlar o'rniga tegirmonlar paydo bo'ladi, tanga zarb qislish va pul munosabatlari kushayadi. Shaxar hayoti yuqori darajaga ko'tariladi, masalan Marv shahri 350 gektar, Samarqand 100 gektar yerni egallagan. Ammo qishiloq aholisi ayrim hovli - uylarda mudofaa inshootlarisiz istiqomat qilgan.

XIV - XV asrlarda O'rta Osiyoga, jumladan Farg'ona vodiysi va hozirgi O'zbekistonning janubiy rayonlariga hamda Movarounnahrda mo'g'il qabilalarining (Jaloir, Barlos, qovchin, arlat, alchin, ming, mang'it, nayman va hokazo) ko'chib kelishi kuchaygan. Ularning ko'pchiligi turkiylashgan bo'lib, ayrimlari hatto turk tilini o'zining ona tili deb hisoblaganlar. XV asrda mo'g'il qabilalari o'zlarini chig'atoy deb nomlaganlar va asta- sekin o'troq dehqonchilik xo'jaligiga o'ta boshladilar.

Uchta o'zbek xonliklarining (XVI – XVII asrlar) paydo bo'lishi, turkiy xalqlarning keyingi taraqqiyoti mazkur feodal birikmalarining tevaragida jipslashgan elatlarning ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lib o'ziga xos adabiy tilni yuzaga keltirgan: uyg'ur-qarluq shevasi asosida chig'atoy tili va qipchoq – o'g'uz shevasi asosidagi

Xorazm (yoki jo'chi) turkiy adabiy tili. O'sha davrda Chigatoy tili zahirida o'g'uz lahjasi asosida saljuqiylar tili dastlab Xorazmda, keyinroq Kichik Osiyoga tarqalgan. Hozirgi o'zbek tilida uchta lahja – qarluq – chigil, qipchoq va o'g'uz bo'lib, ular ham ayrim shevalarga bo'linadi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha «turk» so'zining etimologiyasi diniy e'tiqod bilan bog'liq. Akadimek V.V. Bartold «turk» so'zi etnografik emas, balki siyosiy atama deb xisoblaydi. Uning fikricha, turk atamasini turu – qonun, odat so'zi bilan qiyos kilisht mumkin va u “qonun asosida birlashgan xalqlar” degan manoni bildiradi. Akademik N.Ya. Marr «turk»ni ijtimoiy atama bilan bog'lab, uni yuqori tabaqali «tar-xon» so'ziga o'xshatadi va hatto «xudo» ma'nosiga yaqin degan fikrni aytadi.

Lenon, V.Tomson, Yu. Nemet kabi turkshunos olimlar “turk” so'zini “qudrat”, “ kuch” deb tarjima qilganlar. Hozirgacha ayrim mualliflar mashhur “Shohnoma”dagi Turon so'zini Tur ismi bilan sun'iy bog'lab, undan turk so'zi kelib chiqqanligini asossiz ravishda bayon qiladilar.

Ba'zi tadqiqotchilar “turk” atamasi «umumlashtirilgan qabilalar ittifoqining nomi» degan fikrni aytganlar. Bu ittifoqining keng hududda joylashgan qabilalar birikmasini anglatadigan «tur (to'r) to's « suziga «k» harfi qo'shilib umumiy totem nomi bilan bog'liqligi tugrisidagi fikr xam mayejud. Kup tgiqlarda «tur», « yukori», « baland», « chukkki», «uchi» yoki «tog'» ma'nolarini anglatadi va osmondagi yoki yuqoridagi oliy mavjudot obraziga o'xshatiladi. Shu ma'noda bu atama « hyo'kiz» so'ziga yaqinlashtirilib ilohiy obraz, ibtidoiy totem sifatida ham ta'riflangan. Turk atamasi to'g'risidagi quyidagi muhim manba diqqatga sazovordir, Atoqli tarixchi Abulg'ozi o'zining «Shajarai turk» nomli ajoyib asarida bunday hikoya qiladi. Turklarning eng qadimiy ildizi Tavrot va Qur'on obrazlaridan Nuh payg'ambar avlodi hisoblanib, uning o'g'li Yofas otasining hukmi bilan Judi (Ararat) tovidan ketib Atil (Itil, ya'ni Volga) va Yoyiq suvining yoqasiga kelib joylashgan. U anda 250 yil turgan. Yofasning avlodi biyor bo'lib, undan sakkiz o'gil qolgan: Turk ,Xazar, Saqlab, Rus, Ming, CHin, Kamari, Tarix. Ota o'limidan oldin ulug' o'g'li Turkni o'rnida qoldirib, o'zga o'g'lonlariga Turkni uzlaringizga podshoh bilib, aning so'zidan chiqmang, Turkka Yofas o'g'loni deb laqab qo'ydilar. Turkning 4 o'g'li bor edi. Avval To'tak, ikkinchi Chigil, uchinchi Barsachar va to'rtinchi Imloq. Turkning tanlab,xushlab olgan yerlarini bu kun Issiqko'l derlar. Uning o'g'illaridan To'tak oqil va davlatli yaxshi podshoh erdi. Turk ichida ko'p rasmlarni ul paydo qilgan, Oshga tuz solmoqni ul chiqardi. Ikki yuz qirq yil o'tgandan so'ng o'g'li Ablachaxonni o'z o'rnida o'ltirib, keyin Debboquyxonni, uning o'g'li Kuyukxonni taxtga ko'tarib necha yillar odil hukmronlk qilgan. Keyingi avlod Ablachaxonning egizak tug'ilgan ikki o'g'li Tatar va Mog'ul orasida elni bo'lib berdilar. Bu ikkisi bir-biri bilan yomonlik qilmay, yaxshilik bilan

davlat surib umr o'tkazdilar, Mo'g'ul birlan Tatar bulg'ondin, to Boydu zamonigacha hech orlarinda nizo yo'q erdi».

Abulgozi ta'rificha, Mo'g'ulxon k'p yillar podshoh bo'lgan. Bu zamon butun el Ar tog'i va Kar tog'iga yoz faslida yaylovga ko'chgan. Qish bo'lganda Qoraqumda va Sir suvining yoqasida qishlagan. Qoraxon zamonida el andoq nodir bo'lib erdilarkim, ichlarinda bir musulmonlik qolmay erdi. Podshohning ulug' xotinidan ko'rkali oydin va kundan ortiq bir o'g'il bo'ldi. Ul choqda Mo'g'ulning rasmi andak erdi kim, to o'g'lon bir yoshga yetmaguncha anga ot qo'ymasdilar. O'g'lon bir yoshga yetgach sovun solib, ulug' to'y qildi. To'y kuni o'g'lonni maraka ichiga keltirib beklardan podshox so'radi»Bizning o'glimiz bir yoshga yetdi.Endi munga ne ot qo'yarsiz « Beklar javob bermasdan burun o'g'lon aytdi: Mening otim O'g'uz turur» To'yga kelgan ulug' va kichik barcha bu so'ziga tang qoldilar. Toki aytdilar, bu o'g'lonning o'zi otini aytadur, mundin yaxshi ot bo'lurmi , deb otini O'guz qo'ydilar»¹

O'rta Osiyoliklarning ajdodlari eng qadimiy davrlardan nafaqat tili va yozuvi bilan, balki diniy e'tiqodlari bilan ham o'zaro yaxshi bo'lganlar. Ularni muayyan diniy tasavvurlar biriktirib turgan.

Butun O'rta Osiyoda sinfiy jamiyatlar payydo bo'lgandan keyin turli diniy aqidalar, topinishlar yuzaga keladi. Shulardan eng keng tarqalgan va davlat dini darajasiga ko'tarilgani zardushtiylik (uning asoschisi Zardusht) barcha elatlar orasida hurmatlisi hisoblangan. Bu dinni ba'zan ezgu xudo Axuramazda nomi bilan mazdaizm yoki uning asoschisi yunoncha Zoroastr ismi bilan Zoroastrizm deb ataydilar. Ezgulik xudosi bilan birga zardushtiylikda unga raqib xisoblangan Anxra-Maynyu (Ariman) xudosi mavjud bo'lib, bu ikki parvardigor orasidagi qarama - qarshilikni uning ramzi sifatida kuchmanchi qabilalar va otroq axoli orasidagi rakobatni ifodalaydi. Ikki yarim ming yil muqaddam yaratilgan zardushtiylikning mukaddas kitobi «Avesta» dagi afsonaviy obrazlar ajdarxo, dev, ya'juj – ma'juj va x.k) nikox va bshqa marosim va urf-odat elementlari animistik tasavvurlar, odob - ikrom, umuminsoniy qadriyatlarning juda ko'p fazilatleri xozirgacha O'rta Osiyo xalqari, jumladan 'o'zbeklarning milliy odatleri va xususiyatlari sifatida saqlanab kelshii bizning hayotimizda dinning nakadar muxim ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, xalq ijodi namunalari ham uzoq ajdodlarimiz orasida keng hududga tarqalga. Eng qadimiy ajdodlarimiz – sak – massaget – skif – sarmat olami bilan bog'liq folklor asarlari mazmunan va ayrim obrazleri bilan o'zbek, turkmann, qozoq, qoraqolpoq va boshqa turk xalklarining og'zaki ijodida («Qirq qiz», «Dada-Ko'rkut» qissasi, «Alpomish», «Go'ro'g'li» dostoni, Nasriddin, Aldar ko'sa, va boshqa ertaklarda) tasvirlangan. Ulardagi ayrim obraz va voqealarning Orol va Kaspiybo'yi, Dasht Qipchok, Qotaqum, Old Osiyo hamda

¹ Abulg'oz. Shajarayi turk. T. «Cho'lpon», 1992. 15 – 18 betlar.

Shimoliy Kavkazning vohari va bepoyon dashti-biyobonlarida yashagan turli elatlarning rivoyatlari va dostonlari bilan bog'liqligi tasodifiy emas.

Demak, o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa O'rta Osiyolik xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixiga mintaqadagi qadimiy murakkab etnik jarayonni aniq tasavvur qilmaguncha ob'ektiv baxo berish nihoyatda qiyin. Bizning turli irq va dindagi har xil elatlarning quramasidan tashkil topgan ajdodlarimiz eng qadimiy davrlardan yozuvli yuksak madaniyat yaratganlar. Ular ming yillab o'zaro yaqin iqtisodiy, madaniy va maishiy aloqada bo'lib asosan ahil yashab kelganlar.

O'zbek elining shakllanishi eramizdan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab butun antik davr davomida etnik ildizi, xo'jalik-madaniy va turmush - tarzi bir zamindagi hozirgi O'zbekiston hududida yashagan mahalliy yevropoid aholi bilan, asta-sekin sharqdan mongoloid irqiy elementlarining tarqalishi natijasida yuzaga kelgan etnik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bu hudud eramizning V asridan boshlab xunlar bilan sak-massagetlar aralashmasidan tashkil topgan Eftallar davlatiga kirgan. Bu davlat siyosiy jihatdan ko'pgina xalq va elatlarni, turli ijtimoiy- iqtisodiy tuzum, din va ibodatlarni birlashtirgan, Keyingi asrda Garbiy turk hoqonligi hukmronligi Amudaryo sohillarigacha yetib Movarounnahr va Farg'ona vodiisiga shimoli-sharqdan turk qabilalari yangi oqimining ko'chib kelishiga sabab bo'lgan.

Tarixiy hujjatlarga qaraganda, O'rta Osiyoning garbiy va janubiy rayonlarida turkiy aholining jiddiy ko'payishi Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlarining (X – XI asrlar) hukmronligi bilan bog'liq edi. Undan oldinroq turkiy tillar Farg'ona va Choch, viloyatlarida, Zarafshon va Kashqadaryo vodiylarida mahalliy tillarni siqib chiqargan va hukmron bo'la boshlagan Xorazm voxasida mo'g'ul istilosidan keyin XIII-XIV asrlarga kelib qadimgi Xorazm tili mutlaqo yo'qolib, turkiy tilning o'g'uz shevasi singadi, ammo mahalliy aholining turkiylashtirish jarayoni qadimiy yuksak madaniyatli elatlar etnik tuzilishiga ta'sir qilmagan.

Movarounnahrda shimoldan kelib o'rtnashib, mustaqil davlat yaratgan o'zbeklarning keyingi etnik qatlami - islom diniga o'tgan chig'atoylar sulolasi hukmronlik qila boshlagan. Unda turkiy elatlar va qablalar ko'pchilikni tashkil qilgan. Kelgindilar ichida ham turkiy va turkiylashgan mo'g'ul qabilalaridan jaloir, barlos, qovchin, o'rlat va hokazolar. Hozirgi O'zbekiston hududida joylashib, umuman chigatoylar deb nomlangan. O'zbek adabiy tilini keyinchalik A. Navoiy rivojlantirib, uni dastlab «chigatoy tili» deb atalgani hesh bejiz emas.

Eng keying yirik ko'chuv XV asr oxirlari va XVI asr boshlarida ro'y beradi. Bu davrda siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha bo'shashgan O'rta Osiyoda mahalliy hokim va podsholar orasidagi taxt talashlar xalq ommasining og'ir ahvolga tushib harakatga kelishi qo'shni ko'chmanchi o'zbeklarga qo'l kelgan edi. Temuriylar sulolasining oxirgi hokimlari, jumladan Farg'ona hokimi Xusayn Boyqarolar Dashti qipchoqdan kelgan qudratli Shayboniyxon

boshchiligidagi ko'p sonli qo'ishinlar oldida ojizlik qilib chekinadilar. Shunday qilib, hozirgi O'zbekistonning Zarafshon, Surxandaryo va Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm vohasi va boshqa rayonlarda Shayboniyxon bilan kelgan «o'zbek» nomli turkiy tildagi qabilalar ham o'rnatilgan boshlaydi va mahalliy aholi bilan aralashib ketadi. Ular yangi zamindor (feodal) larni barpo etib, ko'p yerlarni zo'rlab musodara qilib olganlar, bir qismini lashkarlarga tarqatib temuriylar to'plagan boyliklarni qo'lga kiritganlar. Shunday qilib, yuqori harbiy tabaqalar oliy siyosiy hokimiyatni o'rnatganlar. O'sha davrda o'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlar keng tarqaladi. («Shayboniynoma», »Nusratnoma», «Abdullanova», «Alpomish» kabilar).

« O'zbek atamasi ilmiy jihatdan xalqi to'liq aniqlanmagan. Dastlab bu so'zni arab muallifi Usam ibn Munqiz (XII asr oxirari) asarlarida uchratamiz. Keyin Rashiddin solnomalarida Jaloliddin harbiy navkarlaridan biri ham "o'zbek" 'ismi bilan tilga olinadi. Atoqli tarixchi Hamdulloh Qaznaviy (XV asr) Oltin O'rda xoni O'zbekning lashkarlarini "o'zbeklar" deb nomlaydi, tegishli ulkani esa «Mamlakati o'zbek» deb ataydi. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar o'zbeklarni Oltin O'rda nomi bilan bog'lik degan fikrni bildiradilar. Boshqa manbalarga qaraganda , XV asr oxiri XVI asr boshlarida Abulxayrxon va uning nabirasi Shayboniyxon karmog'idagi barcha qabila va elatlar birikmasiga umuman «o'zbeklar» deb nom berilgan. Abulqozirning «Shajaryi turk»ida yozilganidek, Oq o'rda podshosi To'ktag'uxon o'lgandan so'ng o'n yoshli O'zbekxon taxtga kelgan.

Ko'pgina manba va rivoyatlarda o'zbeklarning genealogiyasi (shajarasi) haqida gapirilib, o'zbek xalqi 92 urug' (qabiladan) tashkil topgan deyiladi. Asli bu raqam haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , o'zbeklarning kelib chiqishi kabi ularning etnik tuzilishi ham nihoyatda murakkab va ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida bir necha marta o'zgarib ketgan. Ayniqsa turk –mo'g'ul elat va qabilalari o'rtasidagi hokimiyat va yer -mulk uchun tuganmas o'zaro kurashlar, katta qabilalar tomonidan mayda urug' qabilalarining bo'ysundirilib, ba'zan yirik elatlarga singib ketishi, buyuk ko'chishlar va qabilalar birikmalarning paydo bo'lishi kabi etnik jarayonlar ayrim elatlar nomlarining ham o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan.

XV-XVI asrlar O'rta Osiyo mualliflarining asarlarida o'sha davrdagi qozoqlarning o'zbeklar yoki o'zbek qozoq deb nomlanishi ham diqqatga sazovordir.

O'zbek urug' - qabilalarining nomlari ayniqsa etnotoponimlarda, ya'ni qishloqlar va mahallalar hamda geografik nomlarda yorqin ifodasini topgan.

Yangi davr (XIV-XIX asrlar) davomida o'zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib, o'zlarning urug'- qabilaviy nomlarini to bizning asrmiz boshlarigacha qisman saqlab kelganlar. Ular nafaqat etnik jihatdan, balki turmush tarzi va ijtimoiy tuzumi bilan ham o'zaro bir oz farq qilganlar, Ayrim o'zbek qabilalari o'troq dehqonchilikka to'la o'tmagan ko'chmanchilik

xo'jaligi va turmush an'analarini saqlab yarim o'troq holatda yashaganlar. Ular tillaridagi (shevasidagi) farq jihatdan ancha ajralib turganlar.

XX asr boshlariga kelib hozirgi O'zbekistan hududida 2,8 mln. ga yaqin o'zbeklar yashagan, ulardan taxminan 82 foizi qishloqlarda, 18 foizi shaharlarda joylashgan. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, o'zbeklarning ancha qismi qo'shni mamlakatlarda yashab, etnik xususiyatlarini saqlab qolganlar.

Oktyabr to'ntarishidan keyin Sovet hokimiyatining o'rnatilishi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'zbek xalqining keyingi rivojiga ancha "qulay" sharoitlar yaratib berdi. Shoshilinch va to'la o'rganilmagan holda hali milliy muammolar oxirigacha hal qilinmagan, mahalliy xalqlarning milliy shakllanish jarayoni pishib yetilmagan bir vaziyatda o'tkazilgan 1924 yilgi milliy chegaralanish natijasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. O'zbek millatining rivojiga 30 - va urushdan keyingi yillardagi turli siyosiy nayranglar va qotilliklar ham katta putur yetkazdi.

O'zbek millatining eng zo'r farzandlari, ajoyib ishbilarmonlari, uz fikrni dadil ifodalaydigan siyosiy arboblardan va mohir ziyolilarning ko'pchiligi tuhmat va ig'volar bilan hibsga olinib, qirib tashlandi.

O'zbeklarning mustaqillikka erishishi o'zining davlati, tili, va istiqlol siyosatiga ega bo'lishi hozirgi murakkab, og'ir ahvol naqadar jiddiy bo'lmasin, uning istiqboli porloq ekanligining garovidir.

Mavzu: **O'ZBEKLARNING AN'ANAVIY MASHG'ULOTLARI VA XO'JALIK FAOLIYATI .**

Reja:

1. O'zbeklarda dehqonchilik va suv xo'jaligi.

2. Ziroatchilik xo'jaligi.
3. An'anaviy agrotexnika.

A D A B I Y O T L A R .

- 1.I.A.Karimov. Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli. T. «Uzbekiston», - 1992.
- 2.I.A.Karimov. Uzbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T. «Uzbekiston».1993.
- 3.I.A.Karimov. Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli. T. «Uzbekiston».1993.
- 4.I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. «Uzbekiston», 1994.
5. I.A.Karimov Istiklol va ma'naviyat.T. «Uzbekiston», 1995.
6. I.A.Karimov. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. T. «Uzbekiston», 1995.
7. I.A.Karimov. Uzbekiston iktisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yulida. T. «Uzbekiston»,1995.
- 8.Jabborov I. Etnografiya asoslari. T. 1981.
19. Jabborov I. Jaxon xalklari ztnografiyasi. Darslik. T. 1982.
20. Jabborov I. Etnografiya va jaxonning etnik kiyofasi. T. 1982.
21. Jabborov.I. Uzbek xalki etnografiyasi. T.1994.
22. Rustamov M. Urta Osiyo va Kozogiston xalklari etnografiyasi. T.1990.
23. Rustamov M. Uzbek etnografiyasi. 1 – 2 – 3 – kismalar. T.1991.
14. Raximov J. Ulkani urganishni nimadan boshlash kerak. T. 1991.

Insoniyat paydo bo'lganidan beri uzoq tarixiy davr mobaynida turli tabiiy –geografik sharoitga moslashib yashab kelmoqda. Odamlar azaldan muzli Arktikada va jazirima issiqli tropik changalzorlarda, tibet va Pomirning baland tog'li qirlarida, tundra va tayga o'rmonlarida Osiyo, Avstraliya va Afrikaning bepoyon dashtu- biyobonlarida istiqomat qilmoqdalar. Ular issiq sovuq demasdan, siyraklashgan havo sharoitida va yirtqich hayvonlar xavfidan qo'rqmasdan tirikchilik qilib kelmoqdalar. Odamlar dastavval muayyan tabiiy sharoitga moslab o'zlarining peshana teri, mehnat va aql-idroki tufayli o'ziga xos xo'jalik - madaniy tiplarini yaratishga majbur bo'lganlar.

Ibtidoiy davrga odamzod tabiatda mavjud tayyor mahsulotlarni turli usul va y o'llar bilan topib (yig'ib-terib, ov qilib) iste'mol qilib kelgan. Masalan, Osiyo qit'asidan qadimdan yovvoyi bug'doy , Markaziy amerikaning ko'llarida yovvoyi sholi o'sgan, afrikada turli yemishli ildizlar va mevali daraxtlar inson yashashi uchun zarur mahsulotlarni tayyor holda yetkazib bergan. Ammo davr o'tishi bilan odamzodning ko'payishi natijasida tabiiy sharoit inson tirikchiligi uchun kamchilik qila boshlagan. Asta-sekin odamlar o'z mehnati va iste'dodi bilan zarur mahsulotlarni sun'iy ravishda xonakilashtirib yetkaza boshlagan. Shu ma'noda “odamni mehnat yaratadi”, degan mashhur ibora hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda asosiy o'rin

egallaydi. Va Xudo odamlarni o'z suratida yaratdi. Uni Xudo ayol va erkak qilib yaratadi. Xudo ularni muborak qilib, dedi: mana, Men sizlarga yer yuzida bor bo'lgan urug' beradigan daraxtni berdim, Sizlarga ovqat uchun bo'ladi. Va tirik joni bo'lgan yerning hamma vahshiy hayvonlariga va har bir yer yuzida sudraluvchi yemish uchun hamma ko'm-ko'k o'tni berdim. Va shunday bo'ldi. Va Xudo nimaniki yaratgan bo'lsa, hammasini ko'rdi va mana-juda yaxshi. Va oqshom bo'ldi va suhbat bo'ldi: oltinchi kun".

Shunday qilib rivoyatlarga binoan Parvadigor olti kun mehnat qilib butun koinotu olamni va oxirgi kuni odamni yaratgan. Erkakning oti Odam, ayolning otini esa Havva edi. Xudo ularni chiroyli va xushbaxt qilib yaratdi. Ular o'z parvadigorini juda ham sevardilar. Xudo ham ularni sevardi. U o'zi yaratgan barcha ishlarni ularning ixtiyoriga berdi. Parvadigor Odam va Havvani muborak qilib, ularni Eden deb atalgan jannatga o'rnatdi. Ularga topshirdiki, bu bog'ni obod etib, uni qo'riqlasinlar.

Jahonda tarqalgan barcha elat va xalqlarning paydo bo'lishi va ularning kasb- hunarli, mehnat faoliyati hazrati Odam va Havva davrlaridan tarqalganligi tarixiy asarlarda, muqaddas kitoblari xalq ijodi yaratgan afsona va rivoyatlarda o'z ifodasini topgan. Mazkur mifologiya ilmiy namunalari Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq avlod-ajdodlari ijodida saqlangan. Hozirgacha O'rta Osiyo xalqlari an'anaviy mash'g'ulotlarning ayrim sohalari o'zlarining homiy pirlariga ega bo'lishi ham nafaqat qadimiy turli kasb- hunar tarmoqlarining mavjudligidan, balki ularning muayyan diniy e'tiqodlar va ibodatlar bilan bog'liq bo'lganligidan dalolat beradi.

Dehqonchilik madaniyati iborasi asli yerga ishlov bermoq degan ma'noni anglatib, keyinchalik boshqa sohalarga o'tgan va umumiy tarzda madaniyat (ishlov berish) yaratish so'ziga aylangan. Yerga ishlov berish va o'simliklarni parvarish qilish madaniyati tufayli inson tabiatning farzandi sifatida uning bunyodkorlik qobiliyatini munosib ravishda davom qildirib kelmoqda. Tabiatdagi mavjud yuzlab o'simlik turlarini inson o'z qobiliyati va mehnati tufayli sun'iy ravishda madaniylashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotiga aylantirgan. Oqibatda qadimiy davrlardan inson uchun zarur bo'lgan donli ekinlardan sholi bilan tariq Sharqiy Osiyoda, bug'doy- Hindiston, Yevropa, Amerika, Afrika, Avstraliyada, makka –deyarli butun jahonda, arpa-asosan Sharqiy Yevropada, jo'xori-Afrika va qisman G'arbiy Osiyoda tarqalgan.

O'rta osiyoda no'xat, yasmiq, sabzi, paxta, bodom, o'rik, zig'rpoya va boshqa qadimiy ziroatchilik mahsulotlari yaratilganligini juda ko'p olimlar, ayniqsa mashhur biolog N.N.Vavilov o'z asarlarida isbotlab bergan.

O'zbek xalqining qadimiy ajdodlari ham ibtidoiy jamiyat davrlardan boshlab tabiiy sharoitga moslashib o'ziga xos xo'jalik – madaniy tiplarini yaratganlar. Bu holat mahalliy etnoslarning shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki tabiiy sharoitning ta'siri belgilarning etnik madaniyati barcha sohasida, ishlab chiqarish vositalaridan, ayniqsa mehnat

qurollaridan boshlab maishiy turmush buyumlari va hatto elatlarning nomlarigacha sezish mumkin. Masalan, tabiiy iqlimga qarab odamlarning turar joylari, qishloq xo'jaligi ekinlarining turlari, aloqa vositalari xususiyatlarini aniqlash mumkin. Mahalliy tuproq va suv resurslariga, tabiiy o'simliklar, boshqa yer usti hamda yer osti boyliklariga qarab turmush tarzi va madaniyati xarakteri, milliy his-tuyg'ular ham shakllanadi. Xo'jalik – madaniy tiplarning yo'nalishlari o'z navbatida tevarak-atrofdagi tabiiy muhit bilangina emas, baholanki muayyan etnoslarning ijtimoiy –i iqtisodiy rivoji darajasi bilan ham belgilanadi.

Arxeologlar ta'rificha, qadimgi chorvador qabilalarning dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi chinakam inqilobiy hodisa hisoblanib, uni neolitik, ya'ni yangi tosh davri inqilobi deb nomlaganlar. Bunday holat O'rta Osiyoda to'rt-besh ming yillar muqaddam ro'y bergan va uzoq davr davomida rivojlanib va takomillashib kelgan.

O'zbek ziroatchilik sohasida boshqa o'rta osiyoliklar singari, eng qadimiy ajdodlaridan o'tgan sug'oriladigan va lalmikor dehqonchilikni, kichik va katta, oddiy va murakkab sug'orish inshootlari va tizimlari qurishni, dalalarni sug'orishning har xil usullarini, agrotexnika sirlarini yaxshi bilganlar. Boysun va Qurama tog' etaklarida qadimdan juda katta mehnat va yer sharoitini chuqur bilishni talab qiladigan koriz ziroatchiligi saqlanib kelgan. Bu yerda buloq va havza dehqonchiligi ham ma'lum bo'lgan. Zarafshon vodiysi, Sirdaryo, Amudaryo va Qashqadaryo sohillarida neolit va bronza davrlaridan amal qilinib kelingan daryo suvlari k o'payganda suv bosadigan qayir va liman yerlaridagi ziroatchilik to 30-yillargacha saqlangan.

Asli hayvon kuchi va omoch ishlatiladigan sug'orma dehqonchilik O'zbekistonda eramizdan oldingi III-II ming yilliklarda keng tarqala boshlagan. O'sha davrlardayoq Zarafshon kabi yirik daryo sohillarida, Xorazm vohasida erkin yerlarning o'zlashtirilishi rivojlanadi. II ming yillik oxirlari -I ming yillik boshlarida Farg'ona vodiysi o'zlashtirila boshlagan. Asrlar osha mahalliy ziroatchilikda yer unumdorligini tiklash va agrotexnika usullarini takomillashtirish, tuproq o'g'itlashning har xil usullari paydo bo'lib, sug'orish va sho'rni yuvish kabi usullari keng joriy qilingan. Ayniqsa erimizdan avvalgi I ming yillikda Xorazmda yirik magistral kanallar qurish, har xil suv taqsimlash va suv chiqarish inshootlari, marzalangan dalalarning izlari qadimgi misrdagi klassik havza dehqonchiligini eslatadi.

Mahalliy dehqonlar madaniy-etnik an'analar asosida dalachilik, polizchilik va bog'dorchilik sohalarida turli usul va yo'llarni ishlab chiqqanlar. Ilk ziroatchilik davrlaridayoq ular nihoyatda foydali o'simliklarni, ayniqsa donli va poliz ekinlarini, hatto bog'dorchilikni o'zlashtirganlar. Tadqiqotlarga qaraganda, o'rta osiyoliklar so'nggi bosqichdagi neolit va eneolit davrlarida bu g'doy, arpa, tariq va boshqa donlar, o'rik, olma, nok kabi mevalarning ayrim navlarini xonakilashtirgan.

O'zbekiston hududidagi ziroatchilik sug'orish xususiyatlari va erkin turlari bilan xam farqlanadi. Masalan, sug'orma dehqonchilikni mahalliy aholi "Suvli yer", "tirama" yoki "obikor", "obi", sug'orilmaydigan yerlarni 2 lalmi yoki "bahori" deb nomlaganlar. Farg'onaliklar tirama ekinlarni yana ikkiga bo'ladilar: erta ekiladigan "oq" va kechroq hosil beradigan "ko'k" ekinlar. Xorazmda ham lalmikor su g'orma yerlar "oq yer" atalib ariqlardan ortgan qo'yiladi oqimdagi suvli yerlarga sholi ekilib, unga "sholikor yer" deb nom berilgan.

O'zbekistonda tabiiy – geografik sharoit turlicha bo'lishi tufayli xilma – xil sun'iy su g'orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi, havza va hovuzlarda suv to'plash, chig'iriq lar orqali chuqurdan suv chiqarish kanal va ariqlar qazish yo'li bilan suv keltirish qadimdan saqlanib kelgan. Ariq va kanallarga daryolardan saqa orqali suv chiqarish usuli juda keng tarqalgan. Bu nisbatan qulay va ishonchli usul bo'lsada, asli nihoyatda murakkab va sermehnat hisoblangan. Magistral kanallar vohadagi yerlarni su g'orish uchun qazilib, daryo qirg'oqlarining holatiga qarab uning o'ng va chap sohillaridan qazib chiqarilgan. Mazkur kanallardan shaxobchalar, so'ngra ulardan mayda sug'orish tarmoqlari ajralib chiqqan.

O'zbek dehqonlari yerni botqoqlanishdan saqlanish chorasini avzal bilishgan. Ular botqoq yerlarning suvini qochirish uchun zovurlar qazishgan. Masalan, Buxoroga yaqin joyda qazilgan Temur Zaxkash deb atalgan zovur qadimiy inshootlardan biridir. Suvsizlik yoki suv bosish xavfi mahalliy dehqonlarni turli –tuman marosimlar o'tkazish har xil irimlarga amal qilishga undagan.

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin o'zbekistonda suv xo'jaligini takomillashtirish, barcha su g'orish tizimlarini ta'mirlash va yangi kanallar qurish tadbirlari ko'rilgan edi. Ayniqsa, Mirzach o'lda, Far g'ona vodiysida, Zarafshonda, Oqdaryoda, Shahrixon, Zaxariq va Bo'zsuvda yangi irrigatsiya inshootlari, suv taqsimlagichlar, to'g'onlar qurish va boshqa ishlar amalga oshirilgan edi. Qashqadaryo viloyati tumanlarini suv bilan ta'min qilish maqsadida hashar yo'li bilan (14 ming kishi ishtirok qilgan) Langar kanali qurilgan. 1939 yilning bahorida 45 ta kanal hasharchilar yordamida bunyod etildi. O'sha yili yozda 270 km li Katta Farg'ona kanalining 1,5 oyda qurilishi o'zbek xalqi mehnat jasoratining namunasi bo'ldi. Keyinroq hashar usuli bilan Kattaqo'rg'on suv ombori, Janubiy Toshkent va Zarafshon kanallari ishga tushgan edi. Katta Farg'ona kanalini qurishda O'zbekistondan 160 ming Tojikitondan ming kishi qatnashgan. Suv quvvatidan to'la foydalanish maqsadida 1943 yili O'rta Osiyoda eng yirik bo'lgan Farxod GES ining qurulishi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Urushdan keyin paxta yakka hukumronligining o'rnatilishi v xo'jaligini yana ham o'stirishga ham omil bo'ldi. 1980 yillarga kelib, jum huriyatda 900 dan ortiq sug'orish izimi umumiy suv hajmi 4,5 mlrd. Kub metr bo'lgan 15 ta yirik suv omborlari, 72 ta kanal 400 dan ortiq stansionar tipdagi suv nasoslari, 25 ta katta suv inshootlari, 70 ming km kollektor va drenaj

qurilishlari mavjud edi. Bunday xolat dehqonchilikda, bir tomondan, ijobiy natijalar bersa , ikkinchi tomondan, salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirgan edi. Ayniqsa, yirik suv omborlarini qurish xalqimizni juda ko'p ser unum tuproqli yerlardan ajratadi, ekinzorlar esa tabiiy o'g'itdan mahrum bo'ladi. Yer tagiga suvlarning o'tarilishi botqoqliklar va sho'rliklarning ko'payishiga sabab bo'lgan edi. Bunday holat Amudaryo etaklarida Buxoro va Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpog'istonda juda og'ir ekologik ahvolni yuzaga keltirdi. Butun mintaqada fojiali ekologik vaziyatning paydo bo'lishi, Orol muammosi hozirgi kunda ham butun insoniyatning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda.

Ziroatchilik xo'jaligining rivoji birinchi galda uning texnikaviy bilim darajasiga bog'liq. O'zbek ziroatchiligi asrimiz arafasida nisbatan qoloq moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan edi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda , bu yerda ziroatchilik quollarining ko'pchiligi , ayniqsa yer haydash va ekin o'rish quollari ming yillar davomida o'zgarmay hozirgacha yetib kelgan.

O'zbekistonda jamoa va shaxsiy xo'jaliklarda yerga ishlov berish quollarining an'anaviy turlari hozir ham ishlatilmoqda. Masalan, yerni haydashda yog'ochdan yasalgan omoch(ba'zi yerlarda sipor, azal) kabi quollar ishlatiladi. Omoch bo'yinturuq va tirkash bilan molga qo'shilgan. Haydalgan yerni tekislash va kesaklarni yanchish taxta mola yoki tishli six mola(dandana) ishlatilgan. yer ishlarida bel, ketmon, kapcha(kichik bel), hosil yi g'ishda o'roq va xirmonda panjshoha, yog'och bel, zag'oma(tir) kabi quollar 30-yillarning o'rtalarigacha juda keng foydalanilgan, ayrim joylarda ular hozirgacha saqlanib kelmoqda .

Qishloq xo'jaligining barcha sohalarida , ayni qsaziroatchilikda eng muhim mehnat quollari omoch, ketmon, bel va o'roq hisoblangan. Mazkur quollarning mahalliy turlari bir oz farq qilgan. Omoch butun O'rta Osiyoda deyarli bir xilda bo'lsa-da, tabiiy-geografik sharoitga qarab ayrim xususiyatlarga ega. U ikki qismdan iborat. Yalit tut yoki o'rik yog'ochidan, pastki tekis poyli temir yoki cho'yandan yasalgan tish (poza) ot qo'shiladigan yakka shoti berkitilgan qismi. g'ir toshloq yerlarda katta omoch, yengil tuproqli yerlarda kichik omoch ishlatilgan. Omochga qarab yakka shotining uzunligi har xil bo'lgan: 1,75 m dan 2 m gacha , Farg'ona vodiysida 3 metrgacha , Samarqandda 2,14 m dan 2,8 m gacha. Xorazm kundasi boshqa omochlar tishining bir oz keng va yalpoqligi bilan ajraladi. Bu esa yerni yumshatibgina qolmay, qatlamlab, o'tlarni qir qishga imkon beradi. Xorazm kundasining omochdan afzalligini asrimiz boshlarida N.N. Aleksandrov qayd qilgan edi. Shu bilan birga, u ikki xil kunda – “yordam kunda” va “mayda kunda” mavjudligi to'g'risida ham yozgan. Birinchi kattaroq bo'lib, sholikor yerlarni yumshatishda , ariq o'tkazishda , ikkinchisi bosh qabarcha yer haydov ishlarida qo'llanilgan.

Odatda omochga ikkita ho'kiz, ba'zi joylarda ot yoki tuya qo'shilgan. Buning uchun bo'yterak yog'ochdan yasalgan bo'yinturiq omochga o'rnatilib, unga ho'kizlar qo'shilgan. Bir qo'sh ho'kiz bilan bir kunda o'rtacha 1-2 tanob(Yarim hektarcha) yer haydalgan.

Haydalgan yerni tekislash va urug'ni sepgach ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatiladi. Asli ikki xil mola bo'lgan: biri katta , og'ir tut yoki o'rik yog'ochidan yasalgan, uzunligi ikki metrgacha keladi, temir yoki cho'yan tishlar o'rnatilgan(six mola, dandana) va ikkinchi oddiy taxtadan (2,5 m va undan uzunroq) yasalgan, tishsiz mola, quriq qatqaloq va ajriqli yerlarda hamda sholikorlikda ishlatilgan. Bu moladan boshqa yer ishlarida ham foydalanilgan. Lalmikor (bahori) yerlarda moladan tashqari shox-shabbalardan yasalgan chapar bilan ham yerni molalaganlar. Ayrim kambag'al xo'jaliklarda omoch ko'ndalang yotqizilib oddiy mola shaklida ishlatilgan. Molaga ham bo'yintiroq o'rnatilgan qo'sh ho'kiz yoki ot qo'shilgan.

O'zbekistonda qadimdan eng keng tarqalgan kovlagich qurol ketmondir. Ayniqsa, Far g'ona va zarafshon vodiylarida , Toshkent vohasida yer ishlarining barcha turlarida ketmon ishlatilgan. Dalachilik va polizchilik ekinlarini chopi qilishda va sug'orishda , Bo g'dorchilik va uzumchilikda, yerga ishlov berish va yo'llarni tuzatishda, qurilish va boshqa ishlarda ketmon asosiy qurol bo'lib xizmat qilgan. Ketmonlar shakli, hajmi va ishlatilishiga qarab farqlangan. Temirdan yasalgan to'la yoki yarim gardishli ketmonlarga tol daraxtlardan sop o'rnatilgan.

Xorazm va Janubiy O'zbekistonda yer ishlarida ko'proq bel ishlatilgan. Xorazm beli konus shakldagi uchi o'tkir ikki tepki quloqli (Surxondaryoda bir tepki quloqli) temirdan yasalgan bo'lib, u aravaga tuproq yoki go'ng ortishda va dalaga sepishda, yerga ishlov berish va kovlashda, qazuv va chopiqda ko'proq ishlatilgan. Suv inshootlarini tozalashda va sug'orishda, paxsa qurishda va boshqa yer hamda loy ishlarida yengil bel (kapcha, belcha)dan foydalanilgan.

Ketmon va belning mahalliy turlarini kartograflashtirish natijasida quyidagi xulosaga kelingan edi: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Shimoliy-Sharqiy O'zbekiston (Toshkent va Far g'ona vodiysi) da dehqonchilik asbob – uskunalarida ichida asosan ketmon, Markaziy O'zbekiston (Zarafshon vodiysi) tumanlarida ham asosan ketmon; qo'shni Buxoro viloyati tumanlarida ketmon hamda bel ishlatilgan; Janubiy O'zbekistonda, Xorazmda, O'rta Amudaryoda bel ketmonga nisbatan ko'proq tarqalgan.

O'zbekistonda ziroatchilikning yirik sohalaridan biri g'allakorlik hisoblangan. Bu sohada bosh ekin bug'doydir, keyin makka va oq jo'xori, arpa, sholi, sul, tariq, mosh, loviya va hokazolardir. 1915 yilda Turkiston o'lkasidagi ekin ekiladigan yerlarning yarmidan ko'pi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi yerlarning 2/3 qismi bug'doy bilan band bo'lgan. Asosan uch xil bug'doy turlari ekilgan. Ular xo'jalik ehtiyojlarini qondirgan hamda tovar

xarakteriga ega bo'lgan, ya'ni bozorga chiqarilgan. Bug'doy turlaridan "oq bug'doy", "qora bug'doy", "laylak bug'doy", "tuya tishi", to'g'li tumanlarda sovuqqa chidamli "chivit" tarqalgan. Arpa mahalliy xo'jaliklarda nafaqat otlarga yem sifatida, balki kambag'al oilalarga non uchun xam ekilgan. Shu maqsadda tariqning ayrim turlari, undan keyin jo'xori ham ekilgan. Zarafshon va Farg'ona vodiylarida jo'xorining bir necha turlari: "kaltapoya", "yo'g'onpoya", "uzunpoya" yoki "shirinpoya", Xorazmda matxop, yasmoq, kattabosh kabilari ma'lum bo'lgan. Bu yerda shakarqamish ham ekilgan.

Mavzu: **O`ZBEKLARDA CHORVACHILIK.**

Reja:

1. O`zbek chorvachiligida qorako`lchilik.
2. Yilqichilik.
3. An'anaviy pillachilik.

A D A B I Y O T L A R .

- 1.I.A.Karimov. Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli. T. «Uzbekiston», - 1992.
- 2.I.A.Karimov. Uzbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T. «Uzbekiston».1993.
- 3.I.A.Karimov. Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli. T. «Uzbekiston».1993.
- 4.I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. «Uzbekiston», 1994.
5. I.A.Karimov Istiklol va ma'naviyat.T. «Uzbekiston», 1995.
6. I.A.Karimov. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. T. «Uzbekiston», 1995.
7. I.A.Karimov. Uzbekiston iktisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yulida. T. «Uzbekiston»,1995.
- 8.Jabborov I. Etnografiya asoslari. T. 1981.
- 9.Jabborov I. Jaxon xalklari ztnografiyasi. Darslik. T. 1982.

10. Jabborov I. Etnografiya va jaxonning etnik kiyofasi. T. 1982.
11. Jabborov. I. Uzbek xalki etnografiyasi. T. 1994.
24. Rustamov M. Urta Osiyo va Kozogiston xalklari etnografiyasi. T. 1990.
25. Rustamov M. Uzbek etnografiyasi. 1 – 2 – 3 – kismalar. T. 1991.
15. Raximov J. Ulkani urganishni nimadan boshlash kerak. T. 1991.

O'zbeklar qadim davrlardan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ammo o'troq aholi bilan yarim o'troq aholi orasida turli xildagi chorva xo'jaligi mavjud bo'lgan. Ilgari ko'chmanchi bo'lgan qabilalardan Movaraunnahr turklari, Dashtu qipchoqdan kelib joylashgan ko'chmanchi o'zbeklar yarim o'troq holda yashab chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ayniqsa, qo'ng'iroq, loqay, qarluq, turk kabi yirik qabilalarning avlodlari chorvador hisoblanganlar. Ular bahorda qo'ylar bolalagandan keyin podani to'g'li va adirlardagi yaylovlarda yoki dasht o'tloqlariga haydab chiqqanlar. Odatda yaylovlarda ayollar va o'smirlar bo'lgan, erkaklar vodiya dehqonchilik ishlari bilan band bo'lib, vaqti-vaqti bilan yaylovga chiqib oziq-ovqat yetkazib turganlar. Ular asosan yaylov chorvachiligida qo'y - qo'zilarini boqqanlar. Yarim o'troq o'zbeklar qo'ychilikka alohida mehr qo'ygan va bu uzoq tarixiy an'anaga ega. Xalq orasida tarqalgan turli afsona va rivoyatlarda qo'y jannatdan keltirilgan, deb hikoya qilinadi. Hozirgacha cho'ponlar o'zining risolasi va piriga ega. Ularning piri cho'pon ota hisoblanib, cho'pon bo'lish xudoning marhamati, shuning uchun u juda hurmatli kasb deb qaralgan.

O'zbek chorvachiligida qorako'lchilikka ayniqsa e'tibor katta bo'lgan, dumbali qo'ylar ham ko'p boqilgan. Qorako'l qo'ylari asosan tekisliklardagi yaylovlardan qaytarilib qishloqdagi maxsus ajratilgan qo'tonlarda saqlangan. Ular qishloq atrofidagi dalalarda boqilib, kechalari qo'tonlarda to'plangan. Keyingi bahorda qo'y - qo'zilar yana yaylovlarga ko'chirilgan.

Qo'ylarning dumbali hisori nasllari ayniqsa Janubiy O'zbekistonda va Tojikistonda ko'proq bo'lgan. Ular ko'proq tog'li yaylovlarda kuzning o'rtalarigacha boqilgan, keyin vodiya haydab keltirilib, kuzgi jumi qirqib va qochirib bo'lguncha qishloq atrofidagi o'tloqlarda va og'ilxonalarda boqilgan.

Ekstensiv xo'jalik sharoitida chorvachilikka e'tibor zo'r bo'lgan va uzoq davr to'plangan amaliy tajribaga tayangan holda avloddan – avlodga yetib kelgan. Elda mashhur cho'ponlar avlodi mavjud bo'lgan. Kambag'al oilalar odatda 10-15 xo'jalikka birikib atiqli cho'ponlardan yollab tayinlangan va ularga yordamchi sifatida ikki – uch o'g'il bola ajratilgan. Cho'pon mehnati uchun shartnoma asosida qo'y, natura mahsulot yoki pul bilan hisoblashgan.

Qo'ychilik asosan sotishga mo'ljallangan. Dasht tumanlarda qorako'lchilik rivojlangan va bozorga chiqarilgan. Qorako'l terilarini ilgari maxsus savdogarlar o'z vakillari orqali terib olganlar, barra go'shti shahar (qishloq) bozorlarida chiqarilgan. Qorako'l go'shtlari juda shirin bo'lganligi uchun ularga tirik holda shaharlarga qassoblarga keltirib sotilgan. Maxsus molfurush, moljalloblar XX asr boshlarida, mart oylarida, masalan, Buxoro amirligidan minglab qo'ylarni poda-poda qilib Zarafshon vodiysiga haydab keltirganlar. Ularning junini qirqib ba'zan shahardagi o'zbeklarga o'g'ilxonada boqishga yoki maxsus cho'ponlarni yollab topshirganlar. Podalarni Zarafshon va Turkiston tog' tizmalaridagi yozgi yaylovlarda boqib avgust oyidan shahar bozoriga chiqarila boshlaganlar. Farg'ona vodiysidagi molfurushlar Qirg'iziston tog'laridagi qo'ylardan ko'plab poda sotib olib o'zlariga boqtirganlar, qishda vodiya haydab kelib pullaganlar. Katta boylar ham molfurushlik qilganlar.

Qo'y juni ham bozorga chiqarilgan. Undan ayrim xo'jaliklarda kigiz, palas, gilam, qop va xurjun ishlab chiqarilgan va qisman savdo qilingan. Qo'y terisidan po'stin va telpak, shuningdek to'shama, mesh, sanoch va boshqa uy - ro'zg'or buyumlari yasalgan.

Ko'pchilik o'zbeklar echki go'shtini "sovuqlik" deb iste'mol qilganlar. Uning junidan xo'jalikda zarur arqon va ip eshilgan, terisidan poyabzal tikilgan, mesh hamda sanoch ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda angor echkilarini parvarish qilish Farg'ona vodiysida avj oladi. Bunday echkilarning juni yuqori sifatli bo'lib, ulardan ajoyib gilamlar va tivit ro'mollar to'qilgan.

Dehqonchilikda yirik shoxli mollardan eng zarur ish kuchi sifatida ho'kizlarni alohida parvarish qilganlar. Qo'ychilikdagidek, yirik shoxli mollar ham maxsus o'troq dehqonlarga xarid qilingan. Xorazmda asosan mol go'shtini, Farg'ona va Zarafshon vodiylarida ko'proq qo'y go'shtini iste'mol qilganlar. To'y - ma'rakalarda buzoq va g'unoinlar so'yilgan.

O'zbekistonda qadimdan yilqichilik ham rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlar minish, aravaga qo'shish hamda yuk tashish uchun parvarish qilingan. O'zbeklarda ko'chmanchi elatlardagidek yilqilar uyuri, ya'ni biyalar to'dasi bo'lmagan, ammo yuqori sifatli ot navlariga qiziqish zo'r bo'lgan. Hozirgacha saqlanib kelgan afsonaviy otlar nafaqat rivoyatlarda, toponomikva diniy e'tiqodlarda (totemistik tasavvurlarda) ham namoyon bo'lgan. Sharqiy Buxorodagi ayrim qabilalarda uyurli otlar saqlangan. Ko'pincha otlar Samarqand, Farg'ona, Qo'qonda va qo'shni o'lkalarda sotilgan.

Dasht va sahro hududida yashovchi o'zbeklar tuyachilik bilan shug'ullanganlar. Bu soha ayniqsa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yashovchi aholiga ma'lum. Tuyalardan asosan yuk tashishda, ba'zan xo'jalik ishlarida, ko'proq karvon savdosida foydalanilgan. Tuyalar odatda

dashtda cho`ponsiz boqilgan. Tuya uncha parvarish talab qilinmaydigan mol bo`lib hisoblanadi. Undan tuya egasi jun, sut va go`sht olgan.

O`troq ziroatchilik bilan shug`ullanuvchi o`zbeklarda chorvachilik uncha rivojlanmagan, chunki sug`orma yer tanqisligidan xashak yetmagan. Mahalliy dehqonlar oz sonli sigir, echki va qo`yni sut – qatiq va go`sht uchun, ot va eshakni minish va yuk tashish uchun parvarish qilganlar. Ot – arava va ho`kizlar ko`proq boy– baquvvat oilalarda bo`lgan. Ishchi hayvonlar ham asosan boylarda bo`lib kambag`al dehqonlar ulardan karandaga olib ishlatganlar. O`rta aholi o`z mollari va qo`y – echkilarini jamoa bo`lib maxsus yollangan cho`ponlarga boqtirgan yoki og`ilxonada saqlab boqqanlar. Kambag`al oilalarda minish, yuk tashish va boshqa xo`jalik ishlarida eshak va xachirdan foydalanilgan.

Parrandachilik o`zbeklarda keng tarqalmagan. Ammo ko`p oilalarda ular go`sht va tuxum uchun saqlangan. Ayniqsa Xorazimda tovuq go`shtidan turli taomlar tayyorlaganlar. Tovuq go`shtli, saryog`da pishirilgan palov taniq taomlardan hisoblanadi.

Hozirgi davrda an`anaviy chorva xo`jaliklari jamoa va davlat xo`jaliklarida birlashtirilgan va zamonaviy texnika va yem – xashak bilan ta`minlangan.

Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida qorako`lchilik mavjud. Farg`ona viloyatidagi b`azi jamoa xo`jaliklarida chorvachilik ananalari saqlangan. Ular qo`shni Qirg`iziston, Qozog`iston va Tojikiston yaylovlaridan ham foydalanadilar. Echkichilik butun viloyatlarda tarqalgan. Farg`ona vodiysidagi jamoa xo`jaliklarida urchitish yo`li bilan angor va mahalliy echkilarda yangi zotlar yetishtirilgan.

O`troq dehqon xo`jaliklarida an`anaviy pillachilik rivojlangan. Ilgari pilla yetkazish yordamchi xo`jalik sohasi hisoblanib, unda faqat ayollar band bo`lgan. Hatto ipak urug`i (qurti) ni ayllar qo`ynida xaltachada saqlab parvarish qilgan. Pilla yetkazadigan xonalar jihozlanmagan. Zarur issiqlik va havo yetishmagan. Oqibatda ipak qurti yaxshi parvarish qilinmaganligidan pilla o`z vaqtida pishib yetilmagan va sifati past bo`lgan. Ipak qurti urug`ini olish korxonalari kam mahsulot bergan. Urug` yetmasligidan uni Italiya va Turkiyadan sotib olishga majbur bo`lganlar.

Shunday qilib, o`zbek dehqonchiligi uzoq tarixiy tajribaga ega bo`lib, o`zining an`anaviy sohalarini saqlabgina qolmay, balki zamonaviy agrotexnika va fan yutuqlariga tayanib yuqori darajaga ko`tarilgan.

Ziroatchilikda va qishloq xo`jaligining boshqa sohalarida zamonaviy agrotexnika, irrigatsiya inshootlari, ilm – fan yutuqlaridan samarali foydalanish natijasida O`zbekiston Respublikasi ilg`or agrosanoat mamlakatlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishish, o`zbek dehqonlarining o`z yeriga o`zi xo`jayin bo`lishi ularning moddiy va madaniy turmushining yana ham yuksalishiga zamin yaratib berdi.

Mavzu: HUNARMANDCHILIK VA UY – RO`ZG`OR KASBLARI.

Reja:

1. O`zbek hunarmandchiligining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Temirchilik.
3. Yog`och buyumlar hunarmandchiligi.
4. Kulolchilik.
5. To`qimachilik va ipakchilik.
6. Do`ppido`zlik.
7. Teri ishlab chiqarish.

A D A B I Y O T L A R .

- 1.I.A.Karimov. Uzbekistonning uz istiklol va tarakkiyot yuli. T. «Uzbekiston», - 1992.
- 2.I.A.Karimov. Uzbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T. «Uzbekiston».1993.
- 3.I.A.Karimov. Uzbekiston – bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli. T. «Uzbekiston».1993.
- 4.I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. «Uzbekiston», 1994.
5. I.A.Karimov Istiklol va ma`naviyat.T. «Uzbekiston», 1995.
6. I.A.Karimov. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. T. «Uzbekiston», 1995.
7. I.A.Karimov. Uzbekiston iktisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yulida. T. «Uzbekiston»,1995.
- 8.Jabborov I. Etnografiya asoslari. T. 1981.
- 9.Jabborov I. Jaxon xalklari ztnografiyasi. Darslik. T. 1982.
- 10.Jabborov I. Etnografiya va jaxonning etnik kiyofasi. T. 1982.
- 11.Jabborov.I. Uzbek xalki etnografiyasi. T.1994.
- 12.Rustamov M. Urta Osiyo va Kozogiston xalklari etnografiyasi. T.1990.
- 13.Rustamov M. Uzbek etnografiyasi. 1 – 2 – 3 – kismalar. T.1991.
- 14.Raximov J. Ulkani urganishni nimadan boshlash kerak. T. 1991.

O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda ikki ming yillar muqaddam keng rivojlangan hunarmandchilik mavjud bo'lganligini isbotladi. Bu davrda sinfiy jamiyatlar paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Oqibatda shaharlarning o'sishi, savdo – sotiqning rivojlanishi ro'y beradi.

Ayniqsa IX – XII asrlarda hunarmandchilik keng miqyosda rivojlanib, O'rta Osiyoning, shu jumladan o'zbek elining ham chet ellar bilan iqtisodiy – madaniy aloqalari avj oladi. Mahalliy hunarmandchilik xalq xo'jaligiga zarur mahsulotlar ishlab chiqarib texnik va badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'tariladi.

Odatda hunarmandchilikning eng kamida 32 xili mavjud bo'lgan aholi yashaydigan joyga shahar deb nom berilgan. Katta shaharlarda aholining ko'pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'tmishda o'troq o'zbeklar nafaqat qo'shni ko'chmanchi elatlar mahsulotini iste'mol (xarid) qiluvchilar, balki ular uchun zarur hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar sifatida ham namoyon bo'lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko'plab teri va jundan, yog'och va metallardan, paxta va ipakdan turli buyumlar, kiyim – kechaklarni ishlab chiqib bozorda sotganlar. O'rta sarf hunarmandlarining yana bir xususiyati (ayrim odatlari bizgacha yetib kelgan) ularning muayyan ijtimoiy tashkilotlarga ega bo'lishida edi. Bu o'ziga xos jamoachilik an'analariga tayangan maxsus uyushmalarga birikish edi. Asli mazkur uyushmalar hunarmandchilik va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq va o'z hamkasblari manfaatini qo'riqlash maqsadida tashkil topgan tashkilotlardir.

O'zbek hunarmandchiligining yana bir xususiyati uning ko'p sohalarining bevosita uy – ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liqligi edi.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlardan eng keng tarqalgan sohasi temirchilik hisoblangan. Bu sohaning rivoji dastavval mahalliy xom ashyoga bog'liq bo'lgan. O'zbekiston o'zining yer qazilma boyliklari, oltin, kumush, mis, temir kabilar bilan ilgari mashhur.

Rivojlangan sohalardan biri metall quyish bilan bog'liq bo'lib, uni ko'p joylarda degrezlik (ya'ni qozon quyish) yoki qozonchi, Xorazm va Buxoroda ``pozachi`` yoki ``pozagar`` (omoch tishi quyuvchi) deb nomlaganlar. Degrez odatda har xil hajmdagi qozon, poza (tish), choy idish, obdasta, aspak, shamdon, manqaldon, qorachiroq, arava g'ildiragiga takcho'yon yoki halqa, juvoz boshmog'I va hokazo ishlab chiqargan. Ayrim joylarda degrezlar cho'yandan quyiladigan mahsulotiga qarab cho'yangar deb ham nomlangan.

Cho`yan quyish maxsus loydan qurilgan bosqonli o`choq (Farg`onada va Toshkentda ``yondo`kon``, Buxoroda ``qo`ra``, Xorazmda ``dastgoh``) larda eritilib, qumdan yasalgan asbob va idishlarning har xil qoliplarda zarur mahsulotlar quyilgan.

XIX asr o`rtalarigacha degrezchilar xom ashyoni mahalliy konlardan olgan, rus mustamlakachiligi davrida Rossiyadan keltirilgan temir – tersaklargdan foydalanilgan.

Metall buyumlar ishlab chiqarish hunarmandchiligi asosan 4 ta yirik sohaga bo`lingan;

1. Temirchilik;
2. Zargarlik;
3. Miskarlik;
4. Tunukasozlik.

Shulardan eng qadimiysi va barcha metall ishlab chiqarish sohalariga zarur qurol va dastgohlar, xalq xo`jaligi, ayniqsa dehqonchilik qurollari, uy – ro`zg`or buyumlariyetkazib berib turgan soha temirchilikdir.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida o`zbek temirchiligi shunchalik rivojlanganki, uning ichida mehnat taqsimoti asosida mustaqil sohalar yuzaga kelgan. Masalan, uy – ro`zg`or buyumi va erkak sarpositarkibi hisoblangano`zbek pichog`ini maxsus pichoqchilar, qulf – kalitni qulfchi yoki qulfgarlar, igna – bigizni ignachi yoki ignasozlar, har xil asbob va buyumlarni chilangarlar, anjomsoz, mixgar, na`lchi, taqachi kabi temirchi ustalar yasaganlar. Temirchi 20 ga yaqin xildagi ketmon, turli xildagi bel, bolta, tesha, o`roq, bolg`a kabilarni ishlab chiqargan.

Degrezchi va zargardan tashqari barcha temirchi ustalarning ishlab chiqarish qurollari asosan bir xil bo`lgan, ammo ular hajmi va ayrim xususiyatlari bilan farqlangan. Temirchi do`konida sandon (sandal), bosqonli o`choq yoki qo`ra, katta – kichik bolg`lar, qisqichlar, egov, zercha, qalam,otashkurak, qayroqli charx va boshqa asbob – uskunalar mavjud bo`lgan.

Miskarlik ham juda keng rivojlangan. Masalan, XX asr boshlarida Buxoroda 400 ga yaqin, Xivada 200 ga yaqin miskar bo`lgan. Ayrim ustalar zo`r mahorat bilan badiiy buyumlar yasaganlar. Ayniqsa Buxoro, Farg`ona va Xiva miskarlari mashhur bo`lganlar.Ular har xil ichimliklar uchun idishlar (piyola, kosa, choy idish, choynak), ovqat va sut idishlari (mis lagan, mis tovoq, mis barakash,la`li, mis ko`za,xumcha, g`umg`on, sotil,oftoba, obdasta, tos, lagan, solobcha, chilopchin, koshkul), xar hil quticha va sandiqcha, nosvoy idishi va hokazo ishlab chiqarilgan. Ko`p buyumlarda bo`rtirilgan yoki o`yma naqishlar berilgan.Rossiya xonliklarni bosib olgandan so`ng mahalliy miskarlar o`ziga xos samovar ishlab chiqara boshlaganlar.

Miskarlar xom ashyo (taxtalangan mis, jez, qizil yoki sariq mis) ni asosan Rossiyadan keltirilganlar, rux, qo`rg`oshin, kislota, nashatir ham tashqaridan yetkazilgan. Odatda idishlarni qizil misdan yasaganlar, nashatir va tuz bilan olovda qattiq qizdirib, keyin suvga solib qizartirganlar. Otga solinmasdan yasaladigan idishkar (ko`zacha, kosa, piola, patnus va H.K.) ni qalaylashtirib oqlaganlar. Barcha manbalarda mahalliy ustallarning zo`r mahorat bilan badiiy buyumlar yasaganligi to`g`risida gapiriladi. Har xil buyumlarda o`simliklar, geometric va hayvonlar stilidagi islmiy uslubgacha naqshlar o`zining jozibadorligi va yuksak saviyasi bilan kishi diqqatini o`ziga jalp qiladi.

O`zbek zargarligi ham qadimiy davrlardan o`zining ajoyib san`ati bilan keng tanilgan. Zargarlik noyob badiiy asarlarning namunalari ko`pgina arxeologik qazilmalardan topilgan. Zargarlar texnik jihatdan umum metall buyumlarni yasash uslublaridan tashqari o`ziga xos xususiyatlarga ham ega bo`lganlar. Hatto oltin va kumushni bolg`alash, qizdirish, sayqalash, pardozlash, buyumga ko`z bosish, tilla suvi berish kabi ishlarda o`ziga xos nozik uslub talab qilingan.

Zargarlar boylarning buyrtmasi bilan katta – kichik qimmatbaho bezaklarni juda chiroyli qilib yasaganlar. Ular xon va beklar uchun anjonmasiga oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan turli bezaklar ham ishlab chiqarilgan. Xoraxm zargarlari bosh va ustgi kiyimlar osiladigan bezaklar (duzug, shavkaladuzug, taxyaduzug, klitbag`i, tumor, aravak, zirak, bilazik, yuzik kabilar ) ni zo`r maxorat bilan yaratganlar. Samarqandning zirak sirg`alari Toshkentnikida hajmi bilan, Buxoroning yaproqsimon oltin marvarid yoki yoqut ko`zli isirg`alari bir-biridan farq qilgan. Farg`ona vodiysida zargarlar qimmatbaho ziynatlangan metallardan turli uzuklar yasaganlar: shonshanak ko`zli yoki ko`zsiz uzuk, tilla uzuk, kumush uzuk, mis uzuk, qalay uzuk, ovq`anch uzuk, rumcha uzuk; ish uslubiga qarab- quyma uzuk, suqma uzuk, muhir uzuk, vahokazo; metaliga yoki shakliga qarab turli bilakuzuklar- tilla bilakuzuk, kumush, mis quyma, tugmali, yapaloq, ilon boshi, baqa bosh, karmanalik ba hokazo. Farg`onada va Toshkentda qorakumush bilan ishlab berilgan bezaklar. Xorazmda og`ir va katta, Buxoroda nozik, Samarqandda yengil o`yma naqshli bilakuzuklar mashhur bo`lgan. Quloqqa osadigan isirg`alarning turlari ham ko`p bo`lgan: turkiston zira, toshkan zira, farg`onacha ziralari osilchoqli, qo`ng`iroqli zira, anjirboldoq va hakazo. Burunga osadigan aravak va lativa, sochga taqadigan metall qismlardan iborat soch popuk, naycha, pur soch popuk, tillazulf, kokilli, panjara, kubba; bo`yinga va ko`krakka osiladigan bezaklar ( zebigardon, javok, bazuband); peshanaga taqiladigan tillaqosh, tillabargak va har xil tumorlar zargarlar tomonidan zo`r mahorat bilan ishlangan. Oltin, kumush va qimmatbaho toshlar Rossiya, Eron, Hindiston, Qo`qon va Buxoradan keltirilgan. O`zbek zargarlari asosan uyida ba`zilar bozorda do`kon qurganlar. Xonlarning ko`shk va saroylarida maxsus zargarlik do`konlari bo`lgan. Va u yerda

qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan pichoq va qilichlar yasalgan. Do'kon jihozlari kichkina sandon, bir necha xildagi bolg'a, qaychi, ombur, tutqich, sim yasaydigan kira, kichkina bosqonli o'choq va misdan yasalgan bahandam, arracha va turli naqsh beradigan metall qalamlardan iborat bo'lgan.

O'zbeklarda keng tarqalgan qadimiy kasblardan yana yog'och buyumlari yasash hunarmandchiligi, duradgorlik, shuvoqchilik, ganjkorlik, marmar uymakorligi, kulolchilik, to'qimachilik, ipakchilik, pillakashlik, zardo'zlik, to'nchilik, chirmgarlik, qandolatchilik, qassoblik, nonvoylik kabi kasblardir.

Mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlari.

REJA:

1. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.

2. Papuaslar va Melaniziya xalqlari.
3. Polineziya xalqlari.
4. Mikroniziya xalqlari.

ADABIYOTLAR.

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "O'zbekiston". 1998 yil.
2. Tokarev S.A. Etnografiya asoslari. M.1968yil.
3. Bruk S. I. Naseleniya mira. M. 1981g.
4. Jabborov I. Jahon xalqlari etnografiyasi. T. "O'qituvchi".1985 yil.
5. Puchkov P.I. Naseleniye Okeanii. Etnograficheskiy obzor. M. 1967.
6. Bruk S. YA. Naseleniye mira. 1981.

Beshinchi qit'a Tinch okeaning janubida joylashgan orollari bilan dunyo chekkasidagi o'ziga xos o'lkadir. Uning iqlimi ham, tabiati ham, etnik tuzilishi ham yer kurrasining boshqa qismidan ancha farq qiladi. To'rt tomoni bepoyon okean suvlari bilan yuvilib turgan Avstraliya qit'asi 7,7 mln. kvadrat kilometr hududga ega bo'lib, taxminan AQSH hududiga teng keladi.

Qit'aning beshdan ikki qismi tropik iqlimli, qolgan qismi subtropik va mo'tadil issiq iqlimli. Ichki Avstraliya nihoyatda qurg'oq, yog'ingarchiligi kam, temperaturasi o'zgaruvchan dasht biyobondan iborat. Uncha katta bo'lmagan daryolar uning shaqida mavjud, xolos. Pastqam tog' tizmalari aosan janubiy – sharqiy qismida joylashgan bo'lib, ular ancha katta territoriyani egallaydi. Bir necha yuz katta-kichik ko'llar mavjud bo'lib, ular yozgi jazirama issiqda qurib sho'r taqqirga aylanadi. Ammo o'lka yer osti suvlariga boy. Mahalliy aholi undan qadim zamondan foydalana bilganlar. Hozir ham bu o'lkada artezan quduqlardan keng foydalaniladi. Avstraliyaning o'simlik yva hayvonot dunyosi ham iqlimi singari xilma-xil. U yerda o'sadigan o'simliklarning aksariyati (85 foizi) faqat p'ziga xos bo'lib, ular boshqa biron yerda uchramaydi. Ayniqsa, janubiy sharqida balaidligi yuz metrga yetadigan ekvalipt daraxtlari qit'aga go'zal manzara kasb etib turadi. Abadiy yashil daraxtlar: palma, fikus, va chirmovuq, o'simliklarga boy tropik o'rmonlar shimoli-sharqda joylashgan. O'lkaniyag g'arbiy va ichki qismiga kirib borgan sari o'simlik dunyosi ham qashshoqlashgandek ko'rinadi. Avstraliyaning havonot dunyosi ham o'zining qadimiyligi bilan, ekzotikasi bilan kishini hayratda qoldiradi. Bu yerda yuksak sut emizuvchilar mutlaqo bo'lmagan, ammo xaltali hayvonlarni yuzdan ortiq turi mavjud. Tuban sut emizuvchilaridan katta kenguru qornida yetishmagan bolasini tugib, qorin terisidagi maxsus xaltasida voyaga yetkazadi. Avstraliyada kenguruning daraxtga tirmashadigan, koala (xaltali ayiq) vombata va hokazo turlari ham yashaydi, sudralib yuruvchilardan ilon, kaltakesak, shimoldagi daryolarda timsoh va boshqa ko'pgina shu kabi

jonivorlar uchraydi. Qushlardan: yirik Avstraliya strausu-emu, turli xil to'tiqushlar, qora oqqush hamda turli sayroqi kushlar Avstraliya tabiatining fayzidir.

Shunisi qiziqki, Avstraliya flora va faunasidagi qush va o'simliklar mahalliy tub aholi uchun yemshi bo'lgan. Ular faqat kaltakesak, chuyvalchang, ilon, va yirik hayvonlarni iste'mol qilganlar. Avstraliyada inson hayoti uchun xavfli bo'lgan yirtqich hayvonlar, zaharli ilon va timsohlar juda ham kam. Faqat yovvoyi it (dingo) uy hayvoni sifatida qo'lga o'rgatilgan.

Orollar Tinch okeani tomon kamayib boradi. Eng yirik orollardan yangi Gvineya, yangi Zelandiya, yangi Kaledoniya, mayda orolyar esa asosan vulqonlardan va marjonlardan paydo bo'lgan va ularning hech aloqasi yo'q. Okeaniyaning barcha orollari deyarli tropik oralig'ida joylashgan. bo'lib, iqlimi ekvatorial, tabiati yashil tropik o'simliklar bilan qoplangan, hayvonot dunyosi g'arbida sharqiga nisbatan boyroq. Okeaniya aholisi asosan uch qismga bo'lingan: janubiy -garbiy qismida Melaneziya, uning sharqi va shimoli - g'arbida tarqoq joylashgan Polineziya «ko'p sonli» orollari, Osiyo sohillariga yaqin mayda orollardan iborat Mikroneziya. Agar Avstraliya tub aholisining sharoiti va madaniy sharoiti sotsial-iqtisodiy jihatdan asosan umumiy xarakterga ega bo'lsa, Okeaniya xalqlari nisbatan yuqori darajada turgan va nihoyatda rang -barang formada joylashgan va rivojlangan. Bu yerda tillar mam juda ko'p, irqi ham bir necha xil. Tillarning joylanishi antropologik turlarga to'g'ri kelmaydi. Ularning xo'jalik titariga qarab .madaniy yoki sotsial rivojlanish darajasini aniqlash ham qiyin. Chunki Osiyo yoki Yevropadagi ishlab- chiqarish qurollari, moddiy buyumlar bu yerga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Masalan: Molineziyaliklar o'q -yoyni, metallni yoki kulolchilikni bilmaganlar, ammo o'ziga xos yuksak madaniyat yaratganlar. Yoki ijtimoiy munosabatlarda melaneziyaliklarda savdo - sotiq rivoj topgan bo'lsa ham, natural xo'jalikka ega bo'lgan polineziyaliklar ularga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega bo'lganlar. Umuman, beshinchi qi'tani o'rganish insoniyat tarixining eng ilk davrlari -ibtidoiy jamiyatdan sinfiy jamiyatning ilk formalarigacha, dastlabki davlat va qabilaviy birliklargacha aniqlab olish imkonini yaratib bergan edi. Dunyoda eng kichik qi'ta yoki katta orol hisoblangan Avstraliya eng qadimiy geologik davrlarda qurg'oqlikdan ajralib qolgan asrgacha jonli muzey sifatida saqlangan. Uning flora va ayniqsa faunasining arxaikligi va uziga xosligi doim tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib turibdi. Avstraliyada yuksak sut emizuvchilarning yo'qligi, tuban sut emizuvchilar (xaltali havonlarning) ning esa ko'pligi bu yerda ibtidoiy dunyo qayta jonlangan degan taassurot tug'diradi. Mazkur tabiiy sharoit mahalliy tub aholining maishiy turmushi va madaniyatida ham o'z aksini topgan. Bepoyon Tinch okeani orollarida yashovchi minglab katta - kichik turli etnoslar kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida ajoyib ishlab-chiqarish usullari xo'jalik formalari, murakkab geografik muhitga moslashgan har xil kasblar, ovchilik mahoratlari, atrof va muhit va cheksiz

dengizlarda yo'l topib uzoqlarga sayohat qilish va sahroda suv topa bilish kabi juda ko'p yangiliklarni kashf etganlar.

2. «Qora orollar» deb atalgan melaniziyaga papauslar o'lkasi - Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Yangi Gibril, Fidji, Yangi Kaledoniya va boshqa orollar kiradi. Mustamlaka arafasida papauslar va melaniziyaliklar xo'jalik jihatdan deyarli bir darajada turganlar. Ularning xo'jaligida eng bogi soha tropik tipdagi dehqonchilik va baliqchilik bo'lgan. Hayvonot dunyosi qashshoq bo'lganligi tufaili ovchilik juda kam rivojlangan.

Tirikchilik asosan dehqonchilik mahsulotlar - ildiz mevali o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirishdan iborat bo'lgan. Quruq joylarda emas, namroq yerda tara, kokos xurmosi, non daraxti, banan, keyin paydo bo'lgan kofe, kakao, sholi, choy, va hokazo hozirgacha ham asosiy ekinlar hisoblanadi. Qish bo'yi yerga ishlov berilib, tropik iqlimga xos ekin ekilgan. Yerni oddiy yog'och bilan kovlab, kesagini yog'och bel bilan hamda qo'lda maydalangan va urug' sochilgan. Yerga ishlov berishda erkak va ayollar teng ishlagan Ekish, yaganalash va yig'im - terim asosan ayollar zimmasida bo'lgan. Sohillarda yashovchi baliqchilar bilan savdolashib dehqonchilik mahsulotlarini ayirboshlaganlar. Baliq ovlash bilan erkaklar shugullanganlar. Baliqchilikda suyak va cig'anoqlardan yasalgan turli qarmoqlar, to'r va savatlar eni ikki metr, uzunligi 300 metrli to'rlar, sanchqi va hatto o'q yoylardan foydalangan. Chorva kam bo'lib, uy xayvonlaridan it, chuchqa, tovuq saqlangan va ularni asosan bayramlarda so'yanlar. Go'shitni yer o'chog'ida toshni qizdirib, yoki olov yoqib lida pishirganlar, ba'zan qaynatib ham yeganlar. Terib - termochlash bilan ham shug'ullanganlar. Uchli yog'ochni chaklyuk toshga ishqalab yoki burov usuli bilan olov hosil qilingan.

Melaniziyaliklarning asosiy qurollaridan toshbolta, nayza, cho'qmor, o'q - yoy, palaxmon kabilar keng tarqalgan. Mudofaa uchun ba'zan yog'och yoki to'qima qalqon ham ishlatilgan. Idish tovoqlarni yog'och va bambukdan, kokos yong'oqidan yoki qovoqdan yasaganlar. Charxsiz kulolchilik, sayohat, bo'ya, xalta, yelpig'ich kabi buyumlar to'k'iqish keng tarqalgan. Ammo gazlama to'qishni bilmaganlar, tapadon va o'simlik yaprog'idan etakli belbog' va hokazo to'qilgan. Melaniziyaliklar va papuaslar asosan o'troq bo'lib, urug' jamoa shaklida kichik qishloqlarda istiqomat qilganlar, ularning uylari odatda har xil tipdagi yengil ustunlarga qurilgan, to'g'ri burchak yoki doirasimon shaklda cho'qqaytirilgan bo'lib, tomlari palma, yoki boshqa daraxt yaproqlari bilan qalin qilib yopilgan. Sohillarda ba'zan qoziq oyoqlarda o'rnatilgan uylar kam uchraydi. Oddiy turar uylardan tashqari har bir qishloqda erkaklar bo'sh vaqtlarida tuplanadigan bazan turli nakshlar bilan bezatilgan xashamatli jamoa uyi (erkaklar uyi) qad ko'targan. An'anaviy transport vazifasi kema bo'lgan. Ular bir ikki odam sig'adigan qayiqchadan tortib 40 taga yaqin bo'lgan odam sig'adigan balansirli yogach kemalargacha ega bo'lganlar.

Papuas va melaneziyaliklarning kiyimlari tropik iqlimga moslashgan bo'lib, asosan erkaklar fartukli belbog' va ayollar esa o'simliklardan tikilgan kalta yubka, ba'zi joylarda tayloq ham kiyib yurishgan. Qattiq yog'ingarchilik vaqtida qalin yaproqlardan kapyushon shaklida tikilgan kiyimni yelkaga yopib yurganlar, ammo kiyimlarga nisbatan bezaklar ko'p bo'lgan. Mustamlaka arafasida ijtimoiy munosabatlar ona urug'ining oxirgi davriga to'g'ri keladigan tuzum darajasida bo'lgan. Yangi Gviniyada urug' jamoalari mustahkam bo'lsa, Fidji orollarida sinfiy jamiyat endi kurtak otgan. Katta orollarning aholisi qabilalarga bo'lingan. Urug'-jamo'a esa uning asosini tashkil topgan. Mulk formasi murakkab: yer jamoaniki bo'lsada, undan foydalanish individual xarakterga ega, har kim hatto bola ham o'zi ekan mevali daraxtga ega bo'lgan. Uy va uning jihozlari, qurollar shaxsiy mulk, kemalar esa jamoaga tegishli bo'lgan. Boylik orttirish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Kimda ildiz meshali ekinlardan yasmoq, bo'yra yoki cho'chqa podasi bo'lsa, shu kishi boy hisoblangan va jamiyatda hurmati baland bo'lgan. Meros ona urug'i tomonidan hisoblangan. Jamo'a mustaqil iqtisodiy hujayra bo'lib yashagan qabilalararo munosabatlar natural savdo va nikoh shaklida amalga oshirilgan. Janubiy va sharqiy orollarda yashovchi melaniziyaliklar jamoasida ijtimoiy tabaqalanish natijasida badavlat shaxslar, zodagonlar va urug' boshliqlari paydo bo'lgan. Ular jamo'a mulkining bir qismini egallaganlar, ayrim a'zolarini o'zlariga qaram qilib olganlar. «Erkaklar ittifoqi» hukmron zodagondarning qudratli quroli hisoblangan. Mazkur ittifoq turli tabaqalarga bo'lingan va eng yuqori tabaqadagi ittifoqqa a'zo bo'lish uchun katta badal to'lagan va maxsus boy marosimlar o'tkazishi shart bo'lgan. Chunki yuqori tabaqadagi ittifoq a'zolari katta intimiyozlarga ega bo'lib, o'ziga xos mustabid hokimiyat vazifasini bajarganlar, aholini qo'rqitib, boyliklarini tortib olganlar. Butun Melaniziyada keng tarqalgan Duk - duk nomli erkaklar ittifoqi aslida initsiatsiya marosimlari bilan bog'liqdir.

Papuas va melaniziyaliklarning diniy e'tiqodida mana tushunchasi muhim rol o'ynagan. Mana tabiatning turli hodisalari, arvoqlar, boy kishilar bilan bog'liq qandaydir beqiyofa kuch hisoblangan. Eng kuchli Mana, odatda qabila boshliqlari, erkaklar ittifoqi rahbarlari va ularning arvoqlariga xos bo'lib, ularga sig'inish keng tarqalgan. Yangi Gibril orollarida tabiat ruhlariga itoat kuchli bo'lgan. Ajdodlarning arvoqlariga sig'inish e'tiqodi o'liklarning kalla suyagini maxsus muqaddas joylarda saqlash odatini yaratgan. Ibtidoiy jamo'a tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish davriga xos turli animistik tasavvurlar, sexrgarlik e'tiqodi, dahshatli areoxlar obrazi va u bilan bog'liq marosimlar melaniziyaliklarning manaviy madaniyatiga ta'sir etgan. Melaniziyaning ko'p qismi issiq nam iqlimli o'rmonlardan iborat bulganligi tufayli mustamlakachilik bu yerda Avstraliya, Poleniziyadan keyinroq boshlanadi. Faqat Yangi Kaledoniya va Fidji orollariga yevropaliklar oldinroq kela boshlaganlar Ayniqsa, XIX asrning oxirlarida kazilma bo'liklar ochilgandan keyin tantatorlar va tog - konchilari Osiyodan ko'p

sonli ishchilar kuchini keltira boshlaydi. Albatta Melaniziyani mustamlaka qilish mahalliy aholining jiddiy qarshiligi ro'y bergan edi. Tish — tinog'i bilan qurollangan istitochilarga qarshi kurashda tub axolining ancha qismi qirilib ketgan. Bizning asrimizda Yangi Gvineya va Melaniziyani imperialistlar ikki marta bo'lishgan. Lekin ozodlik kurashi to'xtamagan.

Tinch okeanining markaziy qismida keng, taxminan bir million kvadrat kilometr suv sathidagi son-sanoqsiz katta-kichik orollardan iborat Poleniziya shimolda Gayayya arxipelagi, janubda eng katta qo'sh orol -Yangi Zelandiya va Sharqda Pasxa uchburchagida joylashgan. Asosan vulkan va marjondardan paydo bo'lgan polineziya orollari (Yangi Zelandiyani hisobga olmaganda 26 ming kv. km. dan iborat territoriyaga ega, shundan 17 ming kv. km faqat Gavayya arxipelagiga tegishli, 220 ta orol esa har bittasi bir kv. km dan kam joyni egallaydi. Polineziyaning tabiati va xayvonot dunyosi ancha qashshoq bo'lib, territoriyasining ko'p qismi abadiy yashil troik o'rmonlar va savannalardan iborat. Polineziya territoriyasida Yangi Zelandiyadan tashqari 9 ta katta arxipelagi — Gavayya, Samoa, Jamiyat orollari, Markiz, Tongga , Taumotu, Kuk, Tubuai, Ellis, va boshqalar. Yangi Zelandiyada hozir uch milliondan ortiq aholi bo'lsa, umuman Polineziyada 1,5 mingga yaqin kishi yashaydi. 70 -yillarning oxiriga kelib butun Okeaniya aholisi yuz mln. kishiga yetdi.

Mustamlakachilar kelgunga unga kadar, ya'ni 15 asr boshlarida orolliklarning asosiy tirikchiligi yo'g'on yo'nilgan yog'och bilan yerga ishlov berib dehqonchilik qilish va dengiz mahsuyaotlaridan foydalanib kelganlar. Ovchilik bo'lmagan, o'q-yoy faqat turli musobaqa o'yinlarida ishlatilgan. Dehqonchilik ekinlarini sug'orishni bilganlar. Hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralgan holda ancha rivojlana boshlagan. Ayniqsa, kemasozlik yaxshi rivojlangan. Poleniziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblangan. Maori, taiti, totan va fidjiylar yasagan yelkanli kemalarda o'nlab - yuzlab uzoq safarga chiqqanlar. Shuningdek, ular kuchli to'lqinlarga moslashgan yog'och balansirli va katta qo'sh kema katamaronlarni ham yasaganlar. Bunday kemalarda yuzlab, minglab kilometr masofani suzib o'tish mumkin bo'lgan.

Hozir ham poleniziyaliklarning ko'pchiligi tropik tipdagi dehqonchilik ildizli ekinlar - yams, taro, batata, va ayniqsa, mevali palma vanon daraxtlari - banan, pizangga ekish va baliqchilik bilan shugullanadilar. Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chka va it saqlaydilar. Chorvachilik Yangi Zelandiyada eng asosiy soha bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligining 80 foizini tashkil qiladi. Dunyoda Yangi Zelandiya sariyog ishlab-chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda, go'sht ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Okean sohillari va atollarda yashovchi aholining erkak qismi asosan baliq ovlash bilan band. Ular qarmoq, sanchqi, to'r va hatto o'simlik zahari bilan ham ov qiladilar. Uy – ro'zg'or buyumlari, yog'och, bambuk, kokos, po'stlog'idan, o'simlik tolasidan to'qiladi. Ovqatni butun Okeaniyada keng tarqalgan yer

o'chog'ida pishirganlar. Olovni ikkita yog'ochni ishqalash yo'li bilan chiqarganlar va o'tda toshni qizdirib, uning orasiga yaproqqa o'ralgan xom taom qo'yilib, o'tin va xashak bекitilib pishirilgan.

“Mayda orollar” nomi bilan atalgan Mikroneziyada asosan marjon va vulqonlardan paydo bo'lgan juda ko'p mayda orollardan iborat. Bunga Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan Marshall, Karolin, Marian, orollari va Gilbert arxipelagi kiradi, Nihoyatda keng tarqalgan hududda tarqoq joylashgan mazkur orollarning umumiy maydoni 3,5 ming kv. kmga ham yetmaydi. Ammo geografik mavqei nqtai - nazaridan Mikroneziya Janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan Polneziya va Melaniziya orolida joylashganligi juda qulay.

Antropologik jihatdan Mikroneziya aholisi Melaniyeziya va Poleniziyaliklarga yaqin mongoloid va negroid irqining aralashmasidan paydo bo'lgan tipdi. Ular o'rta bo'yi, jigarrang tanli va bir oz jingalak sochli. G'arbiy Mikroneziyada mongoloid qo'shimchasi borligi seziladi. Mikroneziya xalqlarining tillari kam o'rganilgan, ammo so'nggi klassifikatsiya ma'lumotlari malayya -poleniziya turkumi avstroneziya tip oilasiga oid ekanligini tasdiqladi. Mikroneziyaliklarning ko'p qismi mazkur tip oilasining sharqiy yoki Okeaniya shaxobchasiga kiradi. Shulardan eng kattalari Gilbert arxipelagidagi tungaru Karolin orollaridagi truk, marshalliklardir. Sof Okeaniya tilida suzlashadigan Sharqiy Mikroneziyada 10 ta xalq yashaydi. G'arbiy shaxobchasiga oid Belau xalqi g'arbiy Mikroneziyada yashaydi. Bulardan tashqari ko'p sonli miteslar, emmigrantlar ham mavjud.

Mikroneziyaliklarning xo'jaligida serunum yerlar kam bo'lganligi tufayli faqat kokos palmasi, shakarqamish, non daraxti o'stiriladi. Aholisi asosan baliqchilik bilan kun ko'radi. Mayda orollarda qisman o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan dengiz ko'chmachilari deb nom olgan qabilalarham yashaydi, Baliq ovi texnikasi ancha rivojlangan: 30 – 40 metr keladigan yog'och tolalardan tukilgan to'rlar, bambukdan pupak va hinjilardan qarmoqlar, xivichdan yasalgan har xil to'rlar, sanchqi va hokazo. Palau orollarida sholikorlik va kulolchilik bilan shug'ullanganlar. G'arbiy Mikroneziyada sug'orish dehqonchiligi asosiy rolni o'ynasa, Sharqiy qismida baliqchilik eng muhim soha hisoblangan.

G'arbning moddiy madaniyati yuksak kulolchilik, tosh ustunlarga uy qurish va boshqa kasb xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Tosh yoki yog'och ustunlariga sinch qilib qurilgan uylari palma yaprog'i bilan yopilgan. qtikilgan yubka kiyadilar.

Ayrim orollar ijtimoiy tuzumida va ma'naviy madaniyatida ibtidoiy an'anaviy munosabatlar shakllangan. Ammo ijtimoiy tabaqalanish ham paydo bo'lgan, harbiylar, dengizchilar va kemasozlar zodagonlar tabaqasiga kirgan, dehqonchilik va baliqchgtik bilan shug'ullanuvchilar esa kambag'al hisoblanganlar. Ayrim Palau kabi orollarda urug' vea

qabilaviy munosabat kuchli bo'lgan. Ayniqsa, ona urug'i tartib qoldirlari saqlangan, qizlar erkin nikoh huquqiga, umuman ayollar erlar bilan teng huquqqa ega bo'lishgan.

Katta oila xuo'alik hujayrasi bo'lib yetishgan. Karolin va Marshall orollarida qabila boshliqlarining hukmronligi va an'anaviy ijtimoiy tartiblari ham hozirgacha saqlangan. Dini qadimiy analitik tasavvurlar bilan bog'liq o'liklar va ajdodlar ibodatidan iborat. Folbin va koshinlar ham bo'lgan. Hozir ko'p orollarda xristian dini ayniqsa, katolitsim tarqalgan. Ammo "Muqaddas homiylar"ga bag'ishlangan bayramlar («Fiyesta») ni nihoyatda tantanli nishonlaganlar. Juda boy va hashamatli nikoh to'ylari ham o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan.

Mikroneziya hozirgi davrda butunlay AQSH ta'sirida. Ular orol qulay yerlarining ko'p qismini egallab olganlar, tub aholiga esa 40% gina yer tekkan xolos. Marian va Marshall orollarining ko'p qismida Amerikaliklarning harbiy bazalari joylashgan. Shu bilan birga AQSH hukmronligi natijasida orollarda iqtisodiy, sotsial yea madaniy koloklik xam xukm surmokda. Mikroneziyaning hozirgi iqtisodi asosan kokos palmasini o'stirish va kokos yong'og'ini ishlab chiqarishdan iborat. Ayrim orollarda shakarqamish, kakao va sabzavot etishtiriladi. Ishchi kuchi sifatida asosan tub aholi ishlatiladi. Gilbert orollarida fosforit qazib olinadi. Maorif tizimi nihoyatda past darajada rivojlangan.